

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Abdurahmanova Mukaddas Tursunaliyevna

**O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI LEKSIK
OMONIMLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik,
chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UO‘K:811.512.133’373.423+811.512.161’373.423

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Abdurahmanova Mukaddas Tursunaliyevna O‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning lingvokognitiv xususiyatlari.....	3
Абдурахманова Мукаддас Турсуналиевна Лингвокогнитивные особенности лексических омонимов в узбекском и турецком языках.....	35
Abdurakhmanova Mukaddas Tursunaliyevna Linguocognitive features of lexical homonyms in uzbek and turkish languages.....	71
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati.....	78
Список опубликованных работ.....	78
List of published works.....	78

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01. RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ABDURAHMANOVA MUKADDAS TURSUNALIYEVNA

**O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI LEKSIK
OMONIMLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik,
chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.DSc/Fil569 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Xolmanova Zulxumor Turdiyevna**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Usmanova Shoir Rustamovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Karimov Suyun Amirovich
filologiya fanlari doktori, professor

Irmatov Ixtiyor Rizoqulovich
filologiya fanlari doktori

Yetakchi tashkilot: **O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil « ____ » _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.S.Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash asosidagi bir martalik
ilmiy kengash raisi, filol.f.d., akademik

Q.U.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash asosidagi bir martalik ilmiy
kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

H.A.Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi bir martalik
ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida lingvistik birliklarni qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigmasida tadqiq qilishga qaratilgan izlanishlar olib borilmoqda. Shuning barobarida antroposentrik paradigmasiga – til birliklari semantikasini kognitiv, psixolingvistik, pragmatik yondashuv asosida tadqiq qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Til va nutq, til va tafakkur aloqadorligi, fikrning til birliklari orqali kodlanishi, tinglovchi ongida to'liq proyeksiyalanishi kognitiv-semantik hamda psixolingvistik aspektda tahlil qilinmoqda. Lingvokognitiv yondashuv nutq mexanizmi, olam manzarasi, borliq haqidagi axborotning lisoniy ongda aks etish jarayonlari, so'z ma'nosini o'zlashtirish va tushunchani til xotirasida saqlash, narsa-buyum, hodisa belgilarining idrok etilishi, leksemaning semantik taraqqiyoti masalalarini tahlil qilish, lug'aviy ma'noni anglashda shakl va mazmun mutanosibligini yoritish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida omonimiya masalasi qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigma asosida tadqiq etilgan. Omonimlarning hali yozuv ixtiro qilinmagan paytlarda ham mavjud bo'lgani, shakliy bir xillik talabi keyingi davrlarda shakllangani ta'kidlanib, mahalliy tillardagi omonimlarning funksional xususiyatlari yoritilgan. Yondosh tushunchalarga munosabati belgilangan, o'xshash hamda farqli belgilari ajratilgan. Omonimiya turlari, leksik, morfologik, sintaktik, omonimlarning leksik-semantik, uslubiy xususiyatlari o'rganilgan. Leksik omonimlarning shakllanish omillari, affiksial omonimlarning uslubiy xususiyatlari, sintaktik omonimlarning struktur-grammatik belgilari tavsiflangan. Bir til doirasidagi va turli tizimdagi tillar o'rtasidagi omonimiya xususiyatlari tadqiq etilgan. Keyingi yillarda leksik omonimlar doirasida lingvokognitiv yo'nalishdagi tahlillar amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekiston asoslarini shakllantirish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish bosqichida mamlakatimizda til masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. O'zbek tili imkoniyatlarini yoritish, keng doirada amaliyotga tatbiq etish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish masalalariga e'tibor qaratilmoqda. Omonimiya hodisasi turkiy tillarning, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, "xos" imkoniyatlaridan biri bo'lib, turkiy xalqlarga xos "baland idrok", "tez fahmlilik" stereotiplari bilan belgilanadi. O'zbek tilida leksik omonimlar lingvistik aspektda struktur-semantik, uslubiy jihatdan tadqiq etilgan. Qiyosiy aspektda, deyarli, o'rganilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "...turkiy tilli davlatlar bilan hamkorlik jarayonlarini rivojlantirish maqsadida o'zbek tilining qardosh tillar bilan tarjima lug'atlarini hamda ularning mobil ilovalarini yaratish"¹ bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylandi. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirishga qaratilgan farmonlar, turkiy tilli davlatlar hamdo'stligi, turkologiya masalalari tadqiqini

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5058351>.

takomillashtirish yuzasidan bir qator hujjatlar qabul qilingan². O‘zbek tilidagi leksik omonimlarning genetik asoslarini yoritish, qardosh tillarga, xususan, turk tiliga qiyosan tadqiq etish, yuzaga kelish omillarini kognitiv jihatdan tahlil qilish, hozirgi miqdori, qo‘llanish holati, tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq qilish til va tafakkur munosabatlarini belgilashda, o‘zbek tilining mantiqiy-semantik imkoniyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil 19-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarildi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.³ Tilshunoslikda lug‘aviy birliklar, omonimlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning muayyan mantiqiy-lisoniy tizimga aloqadorligi, mazmun plani bilan bog‘liq semantikasi va pragmatikasiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Jumladan, Garvard universiteti (AQSh); Moskva semantika maktabi (Rossiya); Voronej pedagogika universiteti (Rossiya); O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetlarida mazkur masala ilmiy tadqiqot obyektiga aylangan.

Dunyo tilshunosligida omonimlarning hosil bo‘lishi, ko‘rinishlari, semantik belgilari, til tizimidagi o‘rni (Garvard universiteti, AQSh); pragmatik aspekti va omonim leksemalarning semantik funksiyasi (Moskva semantika maktabi; Qalmaq universiteti, Rossiya) leksik birliklarning semasiologik va leksikografik xususiyatlari (Kalilin davlat pedagogika instituti; Tyumen davlat universiteti,

² O‘zbekiston-Turkiya: Buyuk tarix bunyod etgan ikki ulug‘ xalq. Xalq so‘zi, 2018- yil 27-aprel №84 (7042).

³Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: www.dissercat.com, www.philol.msu.ru, www.myfilology.ru/semantika/moskovskaya-semanticheskaya-shkola, www.ucla.edu, www.harvard.edu, www.mannheim.de, www.usyd.edu.au, www.vspu.ac.ru, www.berkeley.edu, www.academia.edu, www.udsu.ru, www.pi.sfedu.ru, www.bsru.ru, www.libguides.usc.edu, www.education.com asosida amalga oshirildi.

Rossiya); omonimlarning turli oilalariga mansub tillardagi xususiyatlari (O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti), omonimlarning genezisi, ko‘p ma’nodlilik hodisasiga munosabati, badiiy matndagi xususiyatlari, lingvopoetik funksiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti) tilshunoslikda izchil o‘rganilayotgani e’tiborga molik.

Jahon tilshunosligida bugungi kunda omonimlar semantikasi yuzasidan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: omonimlarning leksik-semantik tadqiqi; omonimlarning ko‘rinishlari, leksik omonimlar, grammatik omonimlarning semantik xususiyatlari, omonimlarni bilingvizm lisoniy vaziyatida tahlil qilish; muayyan diskurs qamrovida o‘rganish; omonimlar ma’nosini o‘zlashtirish va lisoniy xotirada saqlash omillari, badiiy matndagi lingvopoetik xususiyatlari; semasiologik va leksikografik talqini; omonimlarni antroposentrik paradigmadagi tahlil qilish; kognitiv, psixolingvistik xususiyatlarini yoritish; o‘zbek va ingliz tillaridagi leksik omonimlarning chog‘ishtirma tahlili; o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi omonimlarning qiyosiy tadqiqi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida omonimlar muayyan til doirasida va tillararo muammo sifatida tadqiq etilgan. Bir til dorasidagi tadqiqotlarda leksik-semantik yo‘nalish ustunlik qiladi. I.A.Boronina, V.G.Baranovskaya, L.M.Yermakova, T.I.Krasikova tadqiqotlari, diaxron aspektidagi izlanishlar, yozma yodgorliklar matnidagi omonimlar, omonimiya hodisasining tarixiy taraqqiyot bosqichlariga bag‘ishlangan⁴. Sinxron aspektidagi izlanishlarda Y.Lastochkina, M.T.Karimovalar omonimlarni leksik-semantik⁵, I.A.Bogdanova, I.S.Gubanova, I.T.Shakerlar struktur-grammatik jihatdan o‘rgangan⁶, I.A.Shelkova, Ch.A.Davlyatova tadqiqotlarida omonimlar til va nutq hodisasi sifatida farqlangan⁷, O.A.Tabutarova omonimlarni leksik, grammatik xususiyatlari va so‘z yasaliş jarayoni mahsuli sifatida tahlil etgan⁸.

⁴ Боронина И.А. О роли омонимии в японской классической поэзии. – Народы Азии и Африки. – М., 1964. – №2. – С. 145-155; Барановская В.Г. Лексико-грамматические омонимы в языке древнерусских памятников XI-XIV вв. В кн.: Исследования по словообразованию и лексикологии древнерусского языка. – М., 1969. – С. 268-295; Ермакова Л.М. Омонимическая метафора в средневековой поэзии Дальнего Востока (Опыт частной типологии). В кн. Типология и взаимосвязи средневековых литератур Востока и Запада. – М., 1974. – С. 559-574; Красикова Т.И. К проблеме исторического развития омонимии в английском языке //Лесной вестник, 2003. – №4. – С.45-53.

⁵Ласточкина Е. Лексико-семантические особенности омонимов в марийском языке. Дисс. ...д-ра филол. наук. University of TARTU Press, 2016. – 207 с.; Каримова М.Т. Пути образования омонимов и их семантическая классификация в таджикском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Душанбе, 2013. – 21 с.

⁶Богданова И.А. Структурно-семантическая характеристика лексической и лексико-грамматической омонимии современного английского языка. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Пятигорск, 2004. – 24 с.; Губанова И.С. Структурно-квантитативная характеристика омонимии в современном английском языке. Автореф. ...канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2010. – 18 с.; Шакер И.Т. Лексические непроеизводные омонимы – существительные и их отражение в словарях. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Воронеж, 2013. – 24 с.

⁷Шелкова И.А. Системно-языковая и речевая омонимия в русском языке XI– XVII вв. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2011. – 24 с.; Давлятова Ч.А. Омонимия как системная категория (на материале таджикского языка). Автореф.дисс. ...канд. филол. наук. – Душанбе, 2017. – 28 с.

⁸ Табударова О.А. Омонимия как проявление лексических, грамматических и деривационных связей в современном бурятском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Улан-Удэ, 2013. – 28 с.

Omonimlarning shakllanish omillari yoritilgan, polisemiya hodisasiga munosabati⁹, badiiy-stilistik imkoniyatlari¹⁰ o'rganilgan. Omonimlar kompyuter lingvistikasi yo'nalishida tahlil etilgan¹¹.

Bir tizimdagi tillar doirasida olib borilgan izlanishlarda omonimiya hodisasining umumiy va farqli jihatlari, tillararo hodisa sifatida namoyon bo'lishi, yondosh tushunchalarga munosabati, leksik-semantik xususiyatlari tahlil etilgan¹². Turli tizimdagi omonimlar tadqiq qilingan¹³. Omonimlar psixolingvistik, kognitiv, lingvopragmatik aspektda o'rganilgan¹⁴.

Omonimiya hodisasi va omonimlar talqini turkologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lib kelgan. Mo'g'ul tillari va turkiy tillar sintaksisidagi omonimlik o'rganilgan¹⁵. Turkiy tillarning omonimlik xususiyatlari qiyosiy aspektda tavsiflangan¹⁶. Qozoq, chuvash, boshqird, qirg'iz, tatar, buryat, turkman, ozarbayjon, tuva, xakas, yoqut, qalmiq, qoraqalpoq, no'g'ay, qo'miq tillaridagi omonimlar tadqiq etilgan¹⁷.

⁹Барзилович А.М. О применении методов изучения значений слова к разграничению омонимии и полисемии. – ВКУ, 1968. – №10. Сер. филології. – С. 84-93; Никатуева З.Ш. Полисемия и омонимия в даргинском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Махачкала, 2003. – 26 с; Солдатова Л.П. Розмежування явищ повної лексичної омонимії та полісемії (словниковий та функціонально-стилістичний аспекти). Автореф. ..дисс. канд. филол. наук. – Киев, 2007. – 26 с.; Niladri S.D. Polysemy and Homonymy: A Conceptual Labyrinth Proceedings of the IndoWordnet Workshop 2012/Indian Institute of Technology, Kharagpur, India, 8th December, 2010. –P.01-07.

¹⁰Введенская Л.А. К вопросу о классификации и стилистическом использовании омонимических слов. В кн.: Вопросы стилистики и литературоведения. – Ростов на Дону, 1964. – С.92-107; Южанникова М.А. Феномен двусмысленности как основание стилистических приемов в современном русском языке. Дисс. ...канд. филол. наук. – Красноярск, 2015. –С.55.

¹¹ Жеребин В.М., Звонков А.А. – Конверсионная омонимия при машинном переводе с китайского языка. Тезисы докладов на конференции по обработке информации, машинному переводу и автоматическому чтению текста. – М.,1961. – С. 38-39; Жеребин В.М. О разрешении конверсионной омонимии при независимом анализе китайского текста. Машинный перевод. – М.,1961. – С. 180-191; Звонов А.А. Конверсионная омонимия при машинном переводе с китайского языка на русский. В кн.: Спорные вопросы грамматики китайского языка. – М., 1963. – С.125-131.

¹² Барзилович А.М. Сходство и различие явлений лексической омонимии в русском и украинском языках. Вісн. Київського ун-ту. Сер. филології, 1972. – №14. –С.118-125; Кусаль К.Ч. Русско-польская межъязыковая омонимия и паронимия. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – СПб, 2006. – 49 с.; Сидикова Г.Н. Лексико-семантические особенности омонимов в таджикском и английском языках. Дисс. ...канд. филол. наук. – Душанбе. 2021. –176 с.

¹³ Никатуева З.Ш. Сопоставительный анализ лексических омонимов английского и даргинского языков. Мир науки, культуры, образования. – №5 (78), 2019. – С.480-481.

¹⁴Норман Б.Ю. Психолингвистический эксперимент с синтаксически омонимичными предложениями. В кн.: Вопросы лексики и синтаксиса. – Шяуляй, 1974. – С. 145-150; Муравицкая М. Психолингвистический анализ лексической омонимии в украинском языке // Вопросы языкознания, 1991. – С.116-124; Черепанов И.Е. Психолингвистические аспекты омонимии (на материале русско-английского учебного билингвизма). Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М.,2018. – 24 с.; Holly L. Storkel and Junko M.Young. Homonymy in the Developing Mental Lexicon. University of Kansas. – P.577-584; Мангова О.Б., Макарова О.О. Лингвопрагматические аспекты омонимичных окронимов языка экономики // Вестник МГЛУ. Выпуск 14 (700)/2014. – С.115-122.

¹⁵ Абдуллаев С.Н. Об изучении синтаксических омонимов (на материале монгольских и тюркских языков). Вестник Калмыцкого университета, 2016. – №4 (32). – С.109-113.

¹⁶ Eshmanova N. Qozoq va o'zbek tillaridagi omonim so'zlar va ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari/ Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022. – P.848-85.

¹⁷Аханов К. Омонимы в казахском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма - Ата., 1956.– 52 с.; Васильева Е.Ф. Чаваш челхинчи омонимсем синчен (об омонимах в чувашском языке). Ученые записки. (Кировский гос. пед. ин-т). – Чебоксары, 1965. Вып. 26. –С. 104-116; Ахтямов М.Х. – Проблемы омонимии в современном башкирском литературном языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 1966; Бекджанова Р. Омонимы в киргизском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1967.–27 с.; Салимгараева Б.С. Омонимы в современном татарском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 1972. – 22 с.;

“Devonu lug‘otit-turk”dagi omonimlar tahlil qilingan¹⁸. Turk tilshunosligida omonimlar bo‘yicha sanoqli tadqiqotlar olib borilgan¹⁹. Turk olimlari ikki qardosh yoki qardosh bo‘lmagan tillar bilan omonimlar (eşsesliler) qiyosida tillararo omonimiya (межъязыковая омонимия) masalasini tahlil qilganlar. Turk tilidagi tadqiqotlarda tillararo omonimiya yoki “soxta ekvivalentlar”, “aldoqchi so‘zlar” (“ложные друзья переводчика”, “псевдо-друзья переводчика”, “ложные эквиваленты”) kabi nomlar bilan ataluvchi til birliklari tadqiq qilingan²⁰. Omonimlarning (tillararo omonimlar) o‘zlashtirilishi tahlil etilgan²¹. Turk tilidagi omonimlar (tillararo omonimlar) chog‘ishtirma aspektda lingvokulturologik jihatdan o‘rganilgan²². Turk tilshunosligida D. Zeyrek (1998), E. Arıca-Akko‘k (2005), M. Luleji (2010), Hajizade, Naile (2012), Sh.P. Ufuk (2017), M. Bash (2018), A.E. Gundog‘du (2019) kabi olimlar kognitiv yo‘nalishda izlanish olib borishgan²³.

O‘zbek tilshunosligida affiksial omonimiya masalalari M.Jo‘raboyeva tomonidan tadqiq qilingan²⁴. Sh. Rahmatullayev, M. Mirtojiyev, B.Jo‘rayev, B. Suyunovlar leksik omonimlar, omonimiya va polisemiya munosabatlarini tahlil qilgan²⁵. E.Umarov, M. Ravshanovning tadqiqotlarida omonimlar tarixiy aspektda

Дондуков У.Ж. К вопросу о развитии омонимии в бурятском литературном языке. //Вопр. бурятской филологии. – Улан-Удэ, 1973. Вып. 2. – С. 16-28; Гельдымурадов А. Критерии определения лексических омонимов в туркменском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ашхабад, 1974. – 26 с.; Гасанов А.А. Омонимия в азербайджанском языке. Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Баку, 1980.– 50 с.; Татаринцев Б.И. Смысловые связи и отношения слов в тувинском языке. – М.: Наука, 1987.– 196 с.; Каскаракова З.Е. Омонимы в хакасском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2005. – 27 б.; Готовцева Л.М. О фразеологических омонимах в якутском языке // Вестник СВФУ, №2 (58) 2017. – С.92-100; Хонинов В.Н. К изучению омонимии калмыцкого языка и проблеме составления словаря омонимов // Oriyental Studies, 2018, Vol. 39. Is.5. – С.110-119; Kaljanov A. Theoretical basis of homonyms in the modern karakalpak language. International Scientific and Current Research Conferences. 05 Aug 2021. – P. 36-40.

¹⁸Öztürk F. Divanu Lugati’t-Türk’te Sesteş Sözcükler -2-Homonyms in Divan Luğati’t-Türk -2.Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi//Journal of Turkish World Studies. 18/2 Kış–Winter 2018. –S. 507-522.

¹⁹Tereli Y. Ölçünlü Türkiye Türkçesinde Eşbiçimli Biçim Birimlerinden/yapılardan “Ar” (ar/er) “ ‘Ar’ (ar/er) Morphems From Isomorphims (Homonymys) in Standard Turkish”/Sosyal Bilimler Dergisi. –S.19-40; Karaağaç G. Eş Yazılılık, Eş Seslilik ve Çok Anlamlılık, EÜ. TDEAD. VIII., İzmir 1994. – S. 34-35.

²⁰ Аракин В.Д. Об омонимах в турецком языке. – Советская тюркология. – Баку, 1978. – №2. – С. 48-61; Tokatlı S. Türkiye Türkçesi ile Azerbaycan Türkçesindeki Eşsesli Kelimeler Üzerine // Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. Sayı: 16. Yıl: 2004/1.-S.141-156; Керим Т. Омонимы, образованные путем фонетических изменений в турецком и кыргызском языках // Международный научный журнал “Символ науки”, 2016. – №1. – С.104-109; он же. Природа возникновения омонимов в кыргызском и турецком языках //Международный научный журнал “Символ науки”, 2016. – №2. – С.102-105; Polat H. Sirpça, Hirvatça, Boşnakça-Türkçe Sesteş Kelimeler. Edirne, 2020. –S. 130.

²¹ Atmaca E. Eski Oğuz Türkçesinden Günümüz Türkiye Türkçesine Eşgösterenlilik/Dil Araştırmaları. Sayı:12 Bahar 2013. – S.117-138; Ay Y. Yansıma Sözcuklerde Çokanlamlılık-Eşadlılık Meselesi. RumeliDE Journal of language and Literature Studies. 2023/32 (February). – S.316-327.

²²Синячкин В., Доган М.Г. Лингвокультурологический аспект межъязыковой омонимии русского и турецкого языков// Язык. Культура. Социум. – С.176-183.

²³ Müberra Seydi Ertek. Hacizade, Naile (2012), Bilişsel Dilbilim Açısından Duyguların Dili. – Konya: Çizgi Kitabevi. – 214 s.; Türkbilig, 2013/25. – S.163- 165.

²⁴ Жўрабоева М. Ўзбек тилида аффиксал омонимия. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1975. – 30 б.

²⁵Миртожиев М. Ўзбек тилида лексик омонимларнинг вужудга келиши. Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1963. –30 б.; шу муаллиф. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975. –139 б.; шу муаллиф. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010; шу муаллиф. Ўзбек тилида лексик омоним манбалари. – Тошкент: Фан, 2014. – 128 б.; Аликулов Т. Полисемия существительных в узбекском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1966. – 19 с.; Рахматуллаев Ш. Лексик маъноси компонентлаб таҳлил қилиш тажрибасидан // Ўзбек тили ва адабиёти, – Тошкент: 1978. –№4. –Б. 57-63; Рахматуллаев Ш. Луғат бойлигини ўрганиш ва ўргатишда қайта баҳолаш зарур бўлган баъзи масалалар //

tahlil etilgan, leksikografik asoslari yoritilgan²⁶. M. Abjalova, Sh.Hamrayeva, Sh. G‘ulomova, X.Axmedova²⁷ tadqiqotlarida kompyuter dasturlari tizimida omonimlarni farqlash masalalari tahlil qilingan.

O‘zbek tilshunosligida omonimlar tadqiqi genezis, semantik, leksikografik jihatdan tahlil qilingan. O‘zbek tilidagi leksik omonimlar qiyosiy aspektda lingvokognitiv yondashuv asosida o‘rganilmagan. Tadqiqotimizda o‘zbek tilidagi leksik omonimlar qiyosiy planda lingvokognitiv aspektda ilk bor tadqiq etilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlar shakllanishi, tushunilishining kognitiv omillarini aniqlash, leksik omonimiyaning yuzaga kelishidagi umumiy va farqli belgilarni, lisoniy va mental omonimiya qatorlarini ajratish, omonemalar chastotasi va dominantalik belgisini tavsiflash, leksik omonimlarning tafakkurni rivojlantirish funksiyasini, omonimlarni tushunish, o‘zlashtirish va tarjima qilish usullarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlar tizimlashtirish, omonim, omograf, omofon terminlari munosabatini tavsiflash;

o‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlar shakllanishining kognitiv omillarini aniqlash, omonimik qatorlarni lug‘aviy qatlamga ko‘ra tasniflash;

o‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlar qatorining konseptual tahlilini amalga oshirish, omonimlarning kognitiv funktsiya bajarishini asoslash;

o‘zbek va turk tillaridagi lisoniy va mental omonimiya qatorlarining xususiyatlarini tahlil qilish;

o‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarga oid psixolingvistik tajriba o‘tkazish, o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash;

leksik omonimlarga oid kompyuter texnologiyalarini tizimlashtirish, omonimlarni farqlash usullarini ishlab chiqish.

Ўзбек тили ва адабиёти, – Тошкент, 1990. –№3. –Б. 30 – 33; Джураев Б. Структурно-семантическое исследование многозначных слов современного узбекского языка. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985.– 24 с.; Суюнов Б. Ўзбек тилида омонимларнинг юзага келиш омиллари. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2009. – 22 б.; шу муаллиф. O‘zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelish omillari. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2023. –Б. 87.

²⁶ Умаров Э. Об исторических омонимах «чанг» в тюркских языках. Лексика и морфология тюркских языков. – Новосибирск, 1982.– 172 с.; Равшанов М. Омонимы в толковом словаре узбекского языка. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 26 б.

²⁷Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. –Қарши, 2018. –54 б.; Абжалова М.Ўзбек тилидаги матнларни тахрир ва тахлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (расмий ва илмий услубдаги матнлар тахрири дастури учун). Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – 164 б.; Гулямова Ш. Ўзбек тили семантик анализаторининг лингвистик асослари. – Фарғона, 2022. – 236 б.; Axmedova X. O‘zbek tilidagi gaplarni semantik analiz qilishning modeli, algoritmlari va axborot tizimini ishlab chiqish. Texnika fan.b. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. –Toshkent, 2023. – 21 b.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek tili omonimlari lug‘ati²⁸, o‘zbek tilining izohli lug‘ati²⁹ va turk tili izohli lug‘ati hamda omonimlar lug‘ati³⁰dagi leksik omonimlar olindi.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va turk tillaridagi omonimlarning til sohibi lisoniy ongi, so‘z o‘zlashtirish qobiliyati, shakl va ma’no nomutanosibligini anglash darajasi bilan bog‘liq semantik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, tavsiflash, qiyoslash, komponent tahlil, konseptual tahlil, modellashtirish usullari va semantik to‘r usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarga grafik bir xillik mezoni asosida yondashilib, omograflarning bir xil fonetik strukturaga egaligi sababli leksik omonim, omofonlarning shakliy jihatdan farqlanishiga ko‘ra yondosh hodisa ekanligi asoslangan;

leksik omonimlar shakllanishining semantik usuli kognitiv omillarga asoslanishi isbotlanib, o‘zbek tilida o‘z qatlam ↔ o‘zlashgan qatlam, o‘zlashgan qatlam ↔ o‘zlashgan qatlam, turk tilida o‘z qatlam ↔ o‘z qatlam omonimligining nisbatan ko‘pligi aniqlangan;

o‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning kognitiv funktsiya bajarishi asoslanib, freym, mental struktura, kognitiv maydonning omonimik qatorlarni o‘zlashtirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan; omonimlarning semantik guruhlari, struktur-semantik xususiyatlari dalillangan;

o‘zbek va turk tillarida til egasining tafakkuri, idroki, yosh darajasi bilan bog‘liq mental omonimik qatorlarning mavjudligi va davriy, iste’mol doirasi jihatidan chegaralanmasligi dalillanib, omonimiyaning bir xil shaklga egaligi va har xil mazmun ifodalashi asosida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish vositasi ekanligi dalillangan;

o‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlar stimuly so‘z sifatida baholanib, so‘z o‘zlashtirish va semantik taraqqiyot natijasida yuzaga kelish omillari kabi umumiy hamda o‘zbek va turk tillari egalarining lisoniy ongi, idroki bilan bog‘liq farqli jihatlari aniqlangan; omonimlarning kognitiv- semantik maydondagi yadro, markaz, chekka maqomlari dalillanib, omonemalarning dominantalik belgisi asoslangan;

kompyuter texnologiyalari, kollokatsiya, sinonimini keltirish usullarining hamda teglashning leksik omonimlarni farqlash xususiyati asoslangan, neyrolingvistik metodlarning leksik omonimlar semantik mundarijasini tafakkur, idrok bilan aloqadorlikda dalillashda faktik material sifatidagi o‘rni ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

²⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимлари луғати. – Тошкент, 1984. – 215 б.

²⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 5 жилдди. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2006-2008; O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 6 jildli. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022-2023

³⁰ Türkçe Sözlük. Türk Dil Kurumu. Yeni Baskı. Ankara, 1988; Türkçe Sözlük. Türk Dil Kurumu Yayınları. Ankara, 2019.–S.2763; <https://www.mynet.com/>; <https://kelimeler.gen.tr/>; <https://www.sabah.com.tr/>; <https://www.dersimiz.com/es-sesli-sestes-kelimeler-sozlugu>

o‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlar fondi jamlangan, o‘zbek tili milliy korpusi uchun ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan;

o‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning tushunilishiga oid tajriba modellari ishlab chiqilgan;

turk tilidagi leksik omonimlar lug‘ati yaratilgan, o‘zbek tilidagi omonimlar lug‘ati tadqiqot materiallari bilan boyitilgan, o‘zbek tilidagi omonimlarga oid tadqiqotlarning bibliografik ko‘rsatkichi tuzilgan;

leksik omonimlarni farqlashning kollokatsiya usuli, omonimlarni farqlashga qaratilgan teglar tizimi ishlab chiqilgan;

leksik omonimlarni farqlashda sinonimlardan foydalanish usulining o‘zbek tilidagi modellari ishlab chiqilgan;

turk tilidagi leksik omonimlar sayti shakllantirilib, ochiq tizimda ishlaydigan ma’lumotlar bazasi yaratilgan (<http://turkom.uz/>).

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo‘yilgani, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga tayanganligi, tilshunoslikdagi eng so‘nggi ilmiy yutuqlardan foydalanilganligi, xulosalarning zamonaviy lingvistik tahlil metodlari bilan asoslanganligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot tezislarga oid assotsiativ tajribalar o‘tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, mavzuning jahon tilshunosligidagi ustuvor ilmiy konsepsiyalar asosida o‘rganilganligi va xorij tajribasida sinalgan tadqiq usullarining tatbiq etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati omonimiya sohasini ilmiy yutuqlar va nazariy asoslar bilan boyitishi, leksik omonimlarni o‘zlashtirish, tushunish, tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanish, yondosh tushunchalarga munosabati yoritilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati leksik omonimlarni lingvokognitiv aspektda o‘rganish asosida tafakkurni rivojlantirish omili sifatida tavsiflashda, tuyuq, askiya janrlari, iyhom, tajnis badiiy san’atlarini kognitiv-semantik jihatdan tahlil etishda, eski o‘zbek tili tarixi, hozirgi o‘zbek tili, turk tili, turkiy tillarning qiyosiy hamda qiyosiy-tarixiy grammatikasiga oid o‘quv-metodik qo‘llanmalar va darsliklar yaratishda, o‘zbek va turk tillarida tuziladigan izohli va omonimlar lug‘atini boyitishda, oliy o‘quv yurtlari talabalariga maxsus kurs va seminarlar o‘tishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning lingvokognitiv tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

o‘zbek va turk tillaridagi omonimlarning ma’lumotlar bazasi o‘zbek-turk parallel korpuslari uchun material sifatida tizimlashtirilgan, o‘z qatlam ↔ o‘zlashgan qatlam, o‘zlashgan qatlam ↔ o‘zlashgan qatlam omonimligining o‘zbek tilida turk tiliga nisbatan ko‘p miqdorni tashkil qilishi haqidagi ma’lumotlardan, o‘zbek va turk tilidagi omonimlarning teglar tizimidan, o‘zbek va turk tillaridagi omonimlarning o‘xshash va farqli belgilari asoslangan kognitiv-semantik tahlillardan, omonimlarning turkiy tillarga xos hodisa sifatida tildan foydalanuvchilarning tafakkuri, idroki bilan aloqadorligi, mumtoz adabiyotda

tajnis, iyhom san'atlari, tuyuq, askiya janlariga asos bo'lgani, fikrni rivojlantirishi, omonimlarni kompyuterda tushunish va qo'llashga oid, o'zbek va turk tillaridagi omonimlarning o'xshash va farqli belgilari asoslangan kognitiv-semantik tahlillariga oid xulosalardan 2020-2023-yillarda bajarilgan "Erasmus+international KA107. Alisher Navoiy asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish va uning asarlarini xorijda targ'ib qilish" mavzusidagi xalqaro loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 29-apreldagi 04/1-1098-son ma'lumotnomasi). Natijada omonimiyaning turkiy tillarga xos hodisa sifatida tildan foydalanuvchilar tafakkuri, idroki bilan aloqadorligi haqidagi xulosalar loyiha materiallari mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

o'zbek va turk tillaridagi omonimlarning ma'lumotlar bazasi, semantik xususiyatlari, semantik tasnifi, omoleksema, omograf, omofonlarning farqli belgilari, o'zbek va turk tillarida omonimlarning shakllanish usullari, omonimlarni qiyoslash asosida hodisaning til sohiblari tafakkuri, idroki, yondashuviga aloqador belgilarni namoyon qilish xususiyatlariga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2022-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172 raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 29-apreldagi 04/1-1099-son ma'lumotnomasi). Natijada ta'limiy korpusning ma'lumotlar bazasi o'zbek va turk tillaridagi leksik omonimlar qiyosiga oid ma'lumotlar bilan boyitilgan;

omonim tadqiqiga oid dissertatsiyalarning konseptual tahlili, tadqiqot davomida shakllantirilgan o'zbek va turk tillaridagi omonimlarning lingvistik ta'minoti, omonim doirasidagi terminlar tavsifidan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 29-apreldagi 04/1-1097-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek va turk tili sohiblari ongida, dastavval, harakat-holat bildiruvchi omonimlarning idrok etilishi, omonimlarni tushunishning lingvokognitiv omillari, semantik usuldagi so'z yasalishining tafakkur bilan bog'liq belgilari, omonimlarning yuzaga kelish omillari loyiha materiallarini boyituvchi nazariy manba sifatida xizmat qilgan;

omonimiya hodisasi, o'zbek va turk tillaridagi omonimlarning semantik guruhlari, musiqiy terminlar ishtirokidagi omonimiya, *tor*, *chang*, *bas*, *o'yin*, *kuy* kabi so'zlarning o'zbek va turk tillaridagi struktur-semantik xususiyatlari haqidagi xulosalardan 2020-2021-yillarda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan FZ-2019081663 raqamli "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari to'plamini (elektron lug'atlar) yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2023-yil 30-oktabrdagi 1-04/71-son ma'lumotnomasi). Natijada Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn"

asaridagi omonimlar tahlili, olti xil ma'nodagi *ko'k* omonimining izohlanishi, "musiqa" ma'nosidagi *kuy* so'zi etimologiyasi yoritilgan tahlillardan musiqa va raqs san'atining qadimiyligini asoslashda istifoda etilgan.

o'zbek va turk tillaridagi omonimiyaning turkiy tillarga xos lingvistik hodisa ekanligi, omonim bilan aloqador bir necha tushuncha mavjudligi, omonimlik hodisasining buyuk mutafakkirlar tomonidan izohlangani, fikrning rivojiga xizmat qiluvchi shakldoshlik sifatida baholangani, tafakkurni o'stirish vositasi ekanligi, tarixiy shakllanish bosqichlariga egaligi haqidagi xulosalardan 2022-2023-yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali "Hamma uchun" ko'rsatuvining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 19-apreldagi 06-28-453-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek va turk tillaridagi omonimlarning umumiy belgilarga egaligi, o'xshash belgilarning genetik asoslarga bog'lanishi, til sohiblari turmush tarzi, lisoniy ongi, dunyoqarashi, milliy-madaniy belgilarining omonimlarda ifodalanish darajasi haqidagi fikrlar ko'rsatuvlar mazmunini ma'naviy-ma'rifiy jihatdan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 16 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda, <https://scholar.google.com> xalqaro saytlarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 47 ta ilmiy ish, jumladan, 1ta monografiya, 2ta lug'at, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 16ta ilmiy maqola (10tasi respublika va 6tasi xorijiy jurnalda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, umumiy hajmi 240 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati yoritilgan, maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

I bob "**Jahon tilshunosligida omonimiya hodisasining talqini va tadqiqot yo'nalishlari**" deb nomlangan. Bobning birinchi paragrafi "*Jahon tilshunosligida omonimiya hodisasining qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigmasida o'rganilishi*"ga bag'ishlangan. Omonimiyaning ilmiy asosda o'rganish XV asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Alisher Navoiy omonimiya nazariyasini yaratuvchi ijodkor sifatida ham e'tirofqa loyiq. "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida omonimlarning tafakkur janrlariga asos bo'lishi, omonimlar ma'nosiga

asoslanadigan tuyuq turkiy she'riyatning xos janri ekanligi ta'kidlangan. Uch (*tush, yon*), to'rt (*bor*), besh (*sog'in*), olti (*tuz*) so'zdan iborat bo'lgan omonimik qatorlarlar keltirilib, har birining ma'nosi izohlangan³¹. Omonimik qator masalasi ham ilk bor Alisher Navoiy tomonidan o'rta tashlangan.

Dunyo tilshunosligida omonimiya til hodisasi sifatida turlicha baholanib, bir necha belgilariga ko'ra tasniflangan. Jumladan, A.A.Shaykevich "omonimlar" termini ostida so'z va so'zshakllarini nazarda tutgan, ma'no strukturasi leksik ma'nodan tashqari grammatik ma'noni ham e'tiborga olgan³². V.V.Vinogradov omonimiya hodisasini eng dolzarb va shu bilan birga chalkash muammolardan biri sifatida qayd etgan³³. Rus va G'arbiy Yevropa adabiyotida "omonimiya" termini barcha ko'rinishlarida bir xil tovush tuzilishiga ega bo'lgan turli leksik birliklarga nisbatan qo'llangan³⁴.

Jahon tilshunosligida omonimlarning leksik-semantik xususiyatlariga bag'ishlangan izlanishlarning bir qismini omonimiya va polisemiyaning o'xshash hamda farqli jihatlariga qaratilgan ishlar tashkil etadi³⁵. Tadqiqotlarda omonimlar turli xususiyatlariga ko'ra tasniflangan. V.Vinogradov to'liq leksik omonimlarni ikki turga ajratgan: 1) shakl hosil qiluvchi va so'z o'zgartiruvchi murakkab tizimdan xoli bo'lgan omonimlar; 2) so'z tarkibida grammatik shakllar va so'z yasaliş jarayonlari tizimiga ega bo'lgan omonimlar³⁶. O.A.Tabutarova omonimlarni leksik omonimlar va funksional omonimlarga ajratgan. Funksional omonimlarga sintaktik omonimlarni kiritgan³⁷. I.T.Shaker omonimiya va polisemiya tizim sifatida yondashgan, bu tizimdagi leksik birlikni alohida nomlash uchun qo'llanadigan omonema va semantema terminlarini qo'llagan³⁸. Tadqiqotlarda omonimiyaga lug'at sathi tizimi sifatida yondashilib, lisoniy hodisa ko'rinishidagi belgilari tavsiflangan.

Bobning ikkinchi paragrafidagi "*Lingvokognitiv yo'nalishdagi tadqiqotlar va omonimiyaning antroposentrik tadqiqi*" masalalari yoritilgan. Tilni tafakkur (ong, tushuncha) bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini ilmiy tadqiq etuvchi soha kognitiv tilshunoslikdir. Kognitiv yondashuvning asosi tilni fikrni shakllantirish va ifodalash, bilimlarni inson ongida saqlash va tartibga solish, bilim almashish vositasi sifatida tushunish va o'rganishdir.

³¹ Alisher Navoiy. Muhokamat -ul lug'atayn. –Toshkent, 2011. –B.10.

³² Шайкевич А.А. О принципах классификации омонимов // Процессы развития в языке. – М., 1959. – С. 127.

³³ Виноградов В.В. Об омонимии и смежных явлениях // Вопросы языкознания. – М.1960. – №5 – С. 3.

³⁴ Виноградов В.В. Курсатилган манба.– Б. 3.

³⁵ Виноградов В.В. Об омонимии в русской лексикографической традиции. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М., 1977. – С. 290.

³⁶ Виноградов В.В. Об омонимии в русской лексикографической традиции. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М., 1977. – С. 294.

³⁷ Табутарова О. А. Омони́мия как проявление лексических, грамматических и деривационных связей в современном бурятском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Улан-Удэ, 2004. – 23 с.

³⁸ Шакер И. Т. Лексические производные омонимы – существительные и их отражение в словарях. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2013. – 25 с.

Jahon tilshunosligida omonimiya antroposentrik paradigma asosida tadqiq etilgan³⁹. Omonimlarda ifodalangan ma'noni kognitiv yondashuv asosida tahlil qilish noaniqlik, chegaralarning nisbiyligi bilan birga namoyon bo'ladi. So'zning leksikografik tavsifida semantik strukturadagi belgilar har doim ham aks etmaydi⁴⁰.

Omonim va ko'p ma'noli so'zlar to'plami nisbatan baholanishi va ishlab chiqilgan usullar omonimlar miqdorini aniqlashda eng samarali natijalarga olib kelishi asoslangan⁴¹.

Tadqiqotlarda omonimiyaning so'zlarni o'zlashtirish jarayoniga ta'siri tahlil etilgan. Omonimlarning yangi so'zlarga qaraganda tezroq o'zlashtirilishi asoslangan. Ma'lum fonologik shakllarning so'zlarni o'rganishni osonlashtirishi qayd etilgan. So'z o'rganishning boshlanishida omonimlarni o'zlashtirish qiyinligi, lekin keyinchalik shakl bir xilligi yordamida oson o'zlashtirilishi dalillangan⁴².

Omonimlarni aniqlashning lug'at boyligi, grammatik savodxonlik, oldingi bilimlarga asoslanish omillari tavsiflangan, omonimlarni o'zlashtirish 6 bosqichli metodologiya asosida tahlil qilingan⁴³.

Xorijiy tadqiqotlarda omonimlardagi dominant belgilar ajratilgan. Ma'lum bir kontekstda muayyan omonemaning dominantga aylanishi ta'kidlangan. Omonimlarning lingvokognitiv yo'nalishdagi tadqiqi til birliklarining konseptual xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi.

“*Turk tilida omonimlarning o'rganilishi*” deb nomlangan uchinchi paragrafda turkologiyada olib borilgan izlanishlar, omonimlarning lingvistik hodisa sifatidagi xususiyatlari, shevalardagi omonimlik masalasi, omonimlar semantikasi va etimologiyasiga oid masalalar tahlil qilingan⁴⁴. V.D.Arakin turk tilidagi omonimiya hodisasining xususiyatlarini tahlil qilgan. Turk tili negizida yuzaga kelgan omonimlar xususida to'xtalgan. O'rxun-Enasoy yodgorliklaridagi omonimlarni hozirgi turk adabiy tiliga qiyoslagan⁴⁵. Turk tilida omonimiya *eş adllık; eş seslilik/sesteş, eş yazımlılık, eş gösterenlik, eş biçimlilik* terminlari bilan yuritiladi. Bulardan *eş yazımlılık* omonimlarning mohiyatini nisbatan to'liq aks ettiradi. Hadra Kubra, Erkinay Tamtamishlar omonimiya termini bilan aloqador tushunchalarning mohiyatini yoritgan, *eş adlı, eş sesli, eş yazımlı* terminlarining

³⁹ Кожара О.В. Репрезентация многозначного слова в моделях ментального лексикона. Вестник Томского государственного университета. 2019. – № 447. – С. 57.

⁴⁰ Песина С. А. Слово в когнитивном аспекте. – М.: Наука, 2011. – С.29.

⁴¹ Amir Ahmad Habibi. Using translations to distinguish between homonymy and polysemy (Omonimiya va polisemiyanı farqlash uchun tarjimalardan foydalanish). Department of Computing science. University of Alberta, 2020. – P. 23.

⁴² Holly L. Storkel and Junko M. Young. Homonymy in the Developing Mental Lexicon (Mental leksikonning rivojlanishida omonimlarning o'rni). Sommerville, MA: Cascadilla Press, 2004. – P.581.

⁴³ Laongphol Jitsuda. Developing Ability to Translate Homonyms and Homographs via Training in Part of Speech Identification and Dictionary Use. Copyright of Prince of Songkla University, 2013. – P.33

⁴⁴ Гасанов К.М. Омонимы в диалектах азербайджанского языка. В кн.: Вопросы диалектологии тюркских языков. Т. 4. – Баку, 1966. – С. 112-116; Гельдымурадов А. Об этимологических омонимах в туркменском языке. Известия АН Туркменской ССР. Сер. обществ. наук, 1973. – №6. – С. 89-92; Керим Т. Омонимдердин жалпы туркологияда изилдениши//Ученый XXI века, 2016. –№3-3 (16). – С.61-66.

⁴⁵ Аракин В.Д. Об омонимах в турецком языке // Советская тюркология. – Баку: 1978. – № 2. – С. 48-61.

munosabatini tavsiflagan⁴⁶. Turk tilida, asosan, tillararo omonimiya masalasi o‘rganilgan.

To‘rtinchi paragrafda “*O‘zbek tilshunosligida omonimiya tadqiqi va omonimlarni tasniflash masalasi*” tahlil qilingan. Leksik omonimlarning amaliy jihatdan qo‘llanishi hamda o‘rganilishi, dastavval, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlari bilan bog‘liq. S. Usmonov o‘zbek tilini “boshqa tillar kabi omonim (shakldosh) so‘zlarga boy bo‘lgan bir tildir”, deb tavsiflaydi⁴⁷. O‘zbek tilshunosligida omonimlarni to‘liq (to‘la) va noto‘liq (yarim) omonimlarga ajratish rus tilshunosligidagi qarashlar, xususan, V.V.Vinogradov talqinlari ta’sirida yuzaga kelgan.

O‘zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlarda omonimlarga psixolingvistik, kognitiv jihatdan yondashilgan o‘rinlar kuzatiladi. Sh. Shoabdurahmonov omonimiyani ijobiy hodisa sifatida baholagan⁴⁸. H.Jamolxonov omonimlar insonning chuqur fikr yuritishiga yordam berishini qayd etgan⁴⁹. Sh. Rahmatullayev omonimiyaning turlari, shakllanish jarayoni haqida fikr bildirib, inson miyasi, qabul qilish darajasi bilan bog‘liq hodisa ekanligiga e’tibor qaratgan. Omonimiyaning so‘z birikmasi, kontekst yordamida bartaraf etilishini birinchilardan bo‘lib qayd etgan⁵⁰. Omonimiyadan badiiy matnda ijobiy maqsadda foydalanish mumkinligini ta’kidlagan⁵¹. O‘zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarda ham omofon, omograflar farqlangan. Aslida bu tushunchalar omonimik munosabatning shakllanishiga oid jarayon ifodasi bo‘lib, omonimlarga yondosh hodisalar sifatida qaralishi muvofiq emas. Omograf tushunchasi turkiy tillar tabiatiga mos kelmaydi.

II bob “**O‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning lingvostatistik tadqiqi, umumturkiy asoslari, lingvokognitiv omillari**” tahliliga bag‘ishlangan.

Birinchi paragrafda “*O‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning lingvostatistik tadqiqi*” keltirilgan. O‘zbek va turk tillaridagi tarixiy, arxaik omonimlarning asosiy qismi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida jamlangan. Z.Musabayeva “Devonu lug‘atit turk”da 375ta omonim so‘z qo‘llangani, shulardan 104 tasi leksik omonim, 59 tasi leksik-morfologik, 86 tasi ko‘p ma’noli, 126 tasi fonetik omonimlar ekanligi, jami lug‘at so‘zligining 5 foizini tashkil etishini ko‘rsatgan⁵². Tadqiqotimiz jarayonida “Devon”da jami 744 ta omonimik qator mavjudligi aniqlandi. “Devonu lug‘otit turk” turkiy tillarning omonim birliklarini jamlagan muhim manba sifatida e’tirof etilgan⁵³. Ramiz Asker

⁴⁶ Hadra Kübra, Erkinay Tamtamiş. Çok Anlamlılıktan Eş Adlılığa Doğru Tarihsel Bir Yolculuk /A Historical Travel from Polysemy to Homonym_folk/ed. Dergi, 2022; 28(1)-S. 109.

⁴⁷ Усмонов С. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида омонимлар ва синонимлар // Илмий асарлар. Ўзбек тили ва методикаси масалалари. – Тошкент, 1959. – Б.37-51.

⁴⁸ Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.110-111.

⁴⁹ Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.– Toshkent: Talqin, 2005. – B.167.

⁵⁰ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.– B. 37-44.

⁵¹ Rahmatullayev Sh. Ko‘rsatilgan manba. – B. 37-44.

⁵² Мусабаева З. Омонимы в “Дивану лугатит тюрк” Махмуда Кашгарского (XI в.): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе: 1975. – С.11.

⁵³ Kerim. T. Omonimderdin jalpy turkologiyada izildenişi. Ученый XXI века, 2016. № 3-3 (16). – С. 61-66.

mazkur manbadagi soʻzlar soni tadqiqotlarda har xil keltirilganini qayd etgan va bu farqni devondagi omonim va koʻp maʼnoli soʻzlarning turli miqdori bilan izohlagan⁵⁴.

Hozirgi oʻzbek tilidagi leksik omonimlar yuzasidan ayrim statistik tahlillar olib borilgan. Sh.Rahmatullayev omonimiya munosabati ifodalangan leksemalar miqdorini aniqlagan: ikki omoleksemali holat – 74,5 %, uch omoleksemali holat – 19 %, toʻrt omoleksemali holat – 4 %, besh omoleksemali holat – 1 %, olti omoleksemali holat – 1,5 %⁵⁵.

Sh. Rahmatullayev lugʻatida⁵⁶ 485 ta omonimik qator izohlangan boʻlib, ularning 365 tasi 2 tarkibli omonim, 93 tasi 3 tarkibli omonim, 16 tasi 4 tarkibli omonim, 7 tasi 5 tarkibli, 4tasi 6 tarkibli omonimlardir. Umumiy miqdorda 1132ta leksema izohlangan.

Oʻzbek tilida 1029ta, turk tilida 911ta omonimik qator qayd etildi. Bu omonimik qatorlar ikkitadan oltitagacha omonim soʻzlarni oʻz ichiga oladi.

Oʻzbek tilidagi omonimik qatorlarning omonemalar soni ikkitadan sakkiztagacha, turk tilida esa ikkitadan oltitagacha boʻlgan miqdorni tashkil etdi. Ikkita omonemali qatorlar har ikki tilda ham eng koʻp miqdorda – oʻzbek tilida 862ta, turk tilida 746ta ekanligi aniqlandi. Uch omonemali qatorlar oʻzbek tilida – 119ta, turk tilida – 127ta. Oʻzbek tilida ikki omonemali, turk tilida uch omonemali qatorlar faolligi kuzatildi.

“Oʻzbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning umumturkiy asoslari” deb nomlangan ikkinchi paragrafda tarixiy lugʻat va badiiy manbalardagi leksik omonimlarning hozirgi oʻzbek va turk tillariga munosabati tahlil qilingan. “Devonu lugʻotit turk”dagi omonimlarning ayrimlari hozirgi oʻzbek va turk tillarida qoʻllanadi: *qat I* – qavat; *ton qati* – toʻn qati; *qat I* – oʻgʻuzcha *yon* va *old* maʼnolarida ishlatiladi: *beg qatinda* – *bek yonida (DLT,I)*; *kün* – kun, quyosh; *kün* (kun) – kun, kunduz (*DLT,I*). Devonda keltirilgan *til I* – soʻz, kalom; *til II* – tana aʼzosi; *til III* – soʻz, lugʻat omonimik qatori hozirgi oʻzbek tilida shu shakl va mazmunda ishlatiladi; *til IV* omonemasi arxaiklashgan boʻlib, “maʼlumot olishda foydalaniladigan asir” tushunchasini ifodalaydi. Turk tilida soʻz undoshning ogʻuz guruhiga xos jaranglashgan koʻrinishida qoʻllanadi: *til <dil*; *sirkä I* (sirka) – “sirka”; *sirkä II* “boshdagi bit sirkasi” omonimlari oʻzbek va turk tillarida aynan ishlatiladi.

Aygul Uchar “Devonu lugʻotit turk”dagi ayrim omonimlarning hozirgi turk tilida qoʻllanishini qayd etib, omonimik birliklarning maʼnolarini qiyoslagan, semantik jarayonlarga eʼtibor qaratgan. Koʻp maʼnolilik asosida omonim soʻzlar yuzaga kelishini hozirgi turk tilida qoʻllanayotgan omonim birliklar misolida tahlil qilib bergan. Tarixiy maʼno oʻzgarishlari omonimlarni shakllantirishga asos boʻlganini taʼkidlagan⁵⁷.

⁵⁴ Asker R. Divanü Lugat-it-Türk İstatistikleri. 2. Uluslararası Türkiyat Araştırmaları Bilgi Şöleni Bildirileri Kâşgarlı Mahmud ve dönemi (28-30 Mayıs 2008) [e-kitap] /Ankara: Türk Dil Kurumu, 2022. – S.64-65.

⁵⁵ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 464 b.

⁵⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимлари луғати. – Тошкент, 1984. – 214 б.

⁵⁷ Uçar A. Anlambilimsel Bağlantılılık: Türkçe Eylemlerde Çokanlamlılık ve Eşadlılık Ayrımı [Semantic Relatedness: The Distinction Between Polysemy and Homonymy in Turkish Verbs] 2009, In S. Ay, Ö. Aydın, İ.

Omonimlarning qadimgi turkiy til davri manbalarida kuzatilishi o‘zak omonimlarning turkiy tillarning eng qadimgi taraqqiyot bosqichlarida ham faol qo‘llanganini ko‘rsatadi⁵⁸.

Turk tilida *gök I* “osmon”, *gök II* “rang”, *gök III* “yashillik” omonimlari eski o‘zbek tiliga xos shakl va ma’nolarda qo‘llanadi; *kök V* “bitkileri toprağa baғlayan, topraktaki besi maddelerini emmesine yarayan klorofilsiz bölüm” leksemaning “ildiz” semasidan yuzaga kelgan; *kök VI* “sazı kurmayaya yarayan burğu” soz. Navoiy davridagi *ko‘k II* “kuy” ma’nosidagi omonemaning metonimiya asosidagi ko‘rinishidir.

Hozirgi o‘zbek va turk tillarida umumturkiy omonimlarning ayrimlari aynan yoki fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi, ko‘pgina omonemalar esa iste’moldan chiqqan.

Turkiy tillardagi omonimlar oltoy tillari leksikasiga oid tadqiqotlarda ham qayd etilgan. Sh.Usmanova oltoy tillari va shevalaridagi mushtarak maishiy leksikani semantik-funksional, fonetik va struktur-morfologik aspektlarda tahlil qilish davomida omonimik qatorlar ma’nosini izohlagan. Masalan, *qazan* leksemasining “qozonmoq” ma’nosida iste’molda bo‘lgani, antroponim, toponim, gidronim, etnonim vazifasidagi omonimik shakllarga ega ekanligini ta’kidlab o‘tgan⁵⁹.

Uchinchi paragrafda “*O‘zbek tilida leksik omonimlar shakllanishining lingvokognitiv omillari*” yoritilgan. Omonimlarning vujudga kelishida o‘zakning fonetik qisqarishi, fe’l o‘zakdan boshqa turkumlarning yasalishi, ot va fe’l turkumining bir o‘zak, bir xil shaklda mos kelib qolishi yoki bir-biriga aloqasi bo‘lmagan mustaqil o‘zaklarning shaklan muvofiqligi qayd etilgan⁶⁰. Sh.Rahmatullayev omoleksemlarning yuzaga kelishidagi besh xil omilni tavsiflagan⁶¹. Omonimlarning yuzaga kelishida tovush o‘zgarishlari va o‘zlashma leksemlarning kirib kelish usullari ham qayd etilgan⁶². Turkiy tillarda omonimlikni yuzaga keltiruvchi hodisa – qadimgi turkiy til so‘zlariga xos turkum sinkretizmi o‘z ifodasini topgan⁶³. Hozirgi o‘zbek tilidagi *yoz, tut, shish, to‘y* kabi so‘zlarda turkum sinkretizmi xususiyatlari namoyon bo‘ladi⁶⁴. Turkum sinkretizmi

Ergenç, S. Gökmen, S. İşsever and D. Peçenek (Eds.), *Essays on Turkish Linguistics: Proceedings of the 14th International Conference on Turkish Linguistics, 6-8 August 2008*, – P.207 – 216.

⁵⁸ Мелиоранский П.М. Памятник в честь Кюль-Тегина. ЗВД, Т.ХІІ, вып. I-III. – СПб.: 1899; Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. II. Фонетика и морфология. – М., 1952. – 178 с; Севортян Э.В.Соотношение грамматики и лексики в тюркских языках // Вопросы теории и истории языка. – М, 1952; Аханов К. Омонимы в казахском языке. Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. – Алма-Ата: 1956. – С. 24-30; Бекжанова Р. Омонимы в киргизском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе: 1967. – 16 с.

⁵⁹ Усманова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший лексика. –Тошкент: Фан, 2010. –Б.34.

⁶⁰ Суюнов Б. Ўзбек тилида омолексемаларнинг юзага келиш омиллари. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2009. – Б.23.

⁶¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи,1984. – Б.8.

⁶² Суюнов Б. Ўзбек тилида омолексемаларнинг юзага келиш омиллари. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2009. – Б.24.

⁶³ Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков (Общетюркские и межтюркские основы на гласные). –М.: Наука.1974. –С.40.

⁶⁴ Dadaboyev H., Xolmanova Z. *Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi*. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2015. – Б.46.

boshqa turkiy tillarda ham kuzatiladi⁶⁵. Turkum sinkretizmi semantik usulda omonim hosil bo'lishidir.

M.Mirtojiyev polisemantik so'z taraqqiyoti natijasida omonimlarning yuzaga kelishini asoslab bergan⁶⁶. Omonimlarning semantik usulda shakllanishi kognitiv bilim va jarayonlar mahsuli sifatida baholangan. So'zlarning ko'chma ma'nosi, abstraksiyalash jarayoni tafakkur, idrok bilan aloqadorligi tadqiqotlarda qayd etilgan⁶⁷. Omonimlar shakllanishidagi semantik taraqqiyot usuli lingvokognitiv omillarga asoslanadi. Semantik usulda omonim hosil bo'lishini quyidagi misol tahlili orqali kuzatamiz. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "echki bolasi" ma'nosidagi *uloq* bilan shu so'zdan metonimiya asosida yuzaga kelgan "sport turi" ma'nosidagi *uloq* bir so'zning turli ma'nolari sifatida berilgan: *uloq* II 1 Echki bolasi. 2. Har bir otliq o'rtaga so'yib tashlangan uloqni (odatda echki yoki kichikroq buzoqni) bir-biridan kuch bilan tortib olib, tezroq marraga eltib tashlash uchun kurashishdan iborat milliy sport o'yini; ko'pkari. 3. Shunday sport musobaqasida o'rtaga tikilgan – so'yib tashlangan echki yoki buzoq (O'TIL, IV, 280). "Sport turi" ma'nosidagi *uloq* so'zi "echki bolasi" ma'nosidagi *uloq* so'zidan shakllangan. Sport turidagi bahs jarayoni shu jonzotni qo'lga kiritish uchun qilingan tortishuv, talashish asosiga quriladi. Bugungi kunda mazkur so'zlar o'rtasidagi bog'lanish sezilmay qolgan. Bunga asosiy sabab talashish uchun o'rtaga tashlangan uloq o'rnida boshqa jonzot yoki ashyolarning qo'llanganidir. Keyingi davrlarda shu jonzotning tulumidan foydalaniladi. Insonning e'tibori dastlabki davrlarda uloqqa qaratilgan bo'lsa, keyinchalik otga, chavandozga, ular o'rtasidagi tortishuvga yo'naltirilgan. Bu jarayon "echkining bolasi" ma'nosidagi so'z bilan "sport turi" o'rtasidagi alohidalikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Uloq sport turi *ko'pkari* deb nomlanadi. S. Isroilova *ko'pkari* so'zining kelib chiqishini *ko'k* asosiga bog'laydi. *Ko'pkari* rus tilida "козладрание" (uloq tortish), qozoqlarda "ko'kpari tortu", tojiklarda "bo'ztozi" yoki "bo'z kashi", o'zbeklarda ba'zan "uloq" deb ataladi. Ammo faqat oltoy va qirg'iz tilida ko'pkarining etimologik asosi hisoblangan eng qadimgi nomi – "kəkber̄y" saqlanib qolgan. O'yin dastlab turkiy xalqlarning bo'ri totemiga e'tiqodining ifodasi sifatida shakllangan⁶⁸. *Ko'pkari* o'yinining dastlabki shakllanish jarayonida til egasi lisoniy ongida jarayonning nimaga yoki kimga bag'ishlangani muhim bo'lgan. Keyinchalik tarixiy taraqqiyot natijasida lisoniy ongda jarayonga asos bo'lgan narsaga – uloqqa e'tibor qaratilgan: *ko'pkari*→*uloq*.

Til egasining kognitiv ong freymlarida ham o'zgarish kuzatiladi. Semantik usulda yuzaga kelgan omonimlarda motivatsion va nominativ aloqadorlik mavjud bo'ladi.

To'rtinchi paragraf "*Turk tilida leksik omonimlar shakllanishining lingvokognitiv omillari*"ga bag'ishlangan. Turk tilida omonimlar shakllanishining

⁶⁵ Abdurahmanova M. Turkiy tillarda semantik derivatsiya asosidagi omonimlar. Tilshunoslikning dolzarb masalalari. /Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. –Toshkent, 2022. – B.51-55.

⁶⁶ Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975. – 31 б.

⁶⁷ Хақимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Филол. фан. д-ри (DSc)... дисс. – Тошкент, 2019. – 230 б.

⁶⁸ Бўронов А. Олтойлар. – Тошкент: Мухаррир, 2017. – 132 б.; Исроилова С. "Кўк" лексемаси семантикаси ва тезаурус. Филол. фан.б. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – Б.10.

bir qator omillari mavjud: 1. Umumiste'mol so'zlari va toponimlar o'rtasidagi bir xillik omonimik munosabatni yuzaga keltiradi. 2. Ayrim chet so'zlarni turkiylashtirish natijasida hosil bo'ladi. 3. Chet so'zlarni turk tilining fonetik qoidasiga bo'ysundirish natijasida shakllanadi. 4. Semantik usulda yuzaga keladi. Semantik usuldagi omonim hosil bo'lishining eng faol ko'rinishlaridan biri polisemantik so'zning omonimga aylanishidir. Masalan, turk olimlari *ağız I* *ağız II* (*sheva*) *ağız III* omonimlarining turk tili lug'atida alohida so'z sifatida keltirilgani, *ağız III* leksemasining "yangi tuqqan hayvonlarning ilk suti" ma'nosida izohlangani, eski turkiy tilda *ağuz* shaklida qo'llanganini qayd etib, *ağız* so'zida "boshlang'ich" ("başlangıç") semasi mavjudligi, shu sema asosida *yolun ağzı* "yo'lning og'zi", *tünelin ağzı* "tunelning og'zi", *ırmağın ağzı* "irmoqning og'zi" birkmalari tarkibidagi *ağız* so'zi bilan aloqadorligi, *ağız sütü* birikuvida "tug'ishdan keyingi ilk (boshlang'ich) sut" ma'nosini anglatishi haqida fikr bildirgan⁶⁹. *Og'iz I* "tana a'zosi" – *og'iz II* "taom" omonimligi o'zbek tilida ham mavjud. Sh. Rahmatullayev *âğız II* leksemasini "uvib tush-", "quyuqlash" ma'nolaridagi so'z, deb izohlaydi va bu leksemalar o'rtasidagi aloqadorlikni qayd etmaydi⁷⁰.

Og'iz I "tana a'zosi" – *og'iz II* "taom" (turk tilida: *ağız I* "tana a'zosi" – *ağız III* "ağız sütü") o'rtasida "boshlang'ich" semasi asosidagi aloqadorlik mavjud va bu sema tilning tarixiy taraqqiyoti natijasida sezilmay qolgan, natijada omonim yuzaga kelgan. *Og'iz* tana a'zosi nomida ham "boshlanish" semasi mavjud: "Og'iz bo'shlig'i oshqozon-ichak traktining *boshlang'ich* qismini tashkil qiladi, bunda ovqatning mexanik ishlovi sodir bo'ladi"⁷¹.

O'zbek va turk tillaridagi omonimlarning semantik usulda shakllanishi tarixiy semantik o'zgarishlar mahsuli sifatida yuzaga kelgan.

III bob "**O'zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning kognitiv-semantik tahlili va mental omonimiya qatorlari**" deb nomlangan. Bobning birinchi paragrafida "*O'zbek va turk tillaridagi leksik omonimiya qatorlarining konseptual tahlili*" amalga oshirilgan. Leksik omonimlar shakliy bir xillik, ma'no har xilligiga ko'ra qator hosil qiladi. Ushbu qatorlar omonemalar miqdori, mazmuniga ko'ra farqlanadi. Bu farqlar kognitiv-semantik tahlil orqali aniqlanadi. Z.D.Popova va I.A. Sternin kognitiv-semantik tahlil til birliklarining leksikografik va psixolingvistik ma'no tahliliga asoslanishini qayd etgan. Leksikografik ma'no mantiqiy metod, introspektiv metod, so'zning turli og'zaki va yozma kontekstlarda qo'llanishini tahlil qilish, komponent tahlil metodi orqali yoritiladi. Psixolingvistik tahlil tajribalar orqali amalga oshiriladi⁷². Quyida o'zbek va turk tillaridagi lisoniy omonimik qatorlarning leksikografik ma'no metodi asosidagi tahlili borasida to'xtalamiz. O'zbek va turk tillarining bir til oilasiga mansubligi leksik omonimlarda ham kuzatiladi. Bir qator leksik omonimlar qator hosil bo'lishi va

⁶⁹Kübra H., Tamtamiş E. Çok Anlamlılıktan Eş Adlılığa Doğru Tarihsel Bir Yolculuk /A Historical Travel from Polysemy to Homonym_folk/ed. Dergi, 2022; 28(1). –S.109.

⁷⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент, 2000. – Б.265.

⁷¹ Nazarova N., Musayeva G., Ravshanov I., Astanokulova M. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida uchraydigan kasalliklar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Qamar Media, 2022. – B.4

⁷² Попова З., Стернин И. Кўрсатилган манба. – Б.112.

ma'nosiga ko'ra har ikki tilda bir xil qo'llanadi: *ot+fe'l* omonimligi: *aç I* yemek yemesi gereken; "oziqsiz" – *aç II* açmak fiilinin emir kipi; "buyruq maylidagi fe'l". Har ikki tildagi bir xil omonimik qatorlarda ayrim o'rinlarda uslubiy-semantik farq ko'zga tashlanadi: *düş I* rüya "tush" – *düş II* düşmek(yiqilmoq) fe'lining buyruq mayli. Mazkur omonimik qatordagi *düş II* "yiqilmoq" omonemasi o'zbek tilidagi *tush II* (samolyotdan tushmoq) fe'l leksemasiga qiyoslanganda o'zbek va turk tillari sohiblarining freym strukturasi har xilligi kuzatiladi.

O'zbek va turk tillaridagi omonimik qatorlarda quyidagi farqlar qayd etildi.

O'zbek tilida omonim bo'lmagan so'z turk tilida omonim hisoblanadi. O'zbek tilida narsa-buyumning yonlama hajmini bildiruvchi *en* so'zi lisoniy omonimik munosabat hosil qilmaydi. Turk tilida uch tarkibli *en* omonimik qatori mavjud: *En I* Bir yuzeyde boy sayılan iki kenar arasındaki uzaklık, genişlik, boy, uzunluk karşısı. Yonlama hajm. (*Kenglik sifatida o'lchanadigan sirtning ikki tomoni orasidagi masofa, uzunlikning zidi*) *En II* Hayvanlara veya eşyaya vurulan damga, işaret (*Hayvonlar yoki buyumlarga qo'yiladigan tamg'a, belgi*). *En III* Başına geldiği sıfatların üstün derecede olduğunu gösteren kelime (*Sifatlardan oldin kelib, ularning ustun darajada ekanini ko'rsatuvchi so'z*). "Hayvonlar yoki buyumlarga qo'yiladigan tamg'a" ma'nosidagi *En II* leksemasi o'zbek tilida mavjud emas, turkiy tillarning qadimgi davrlariga xos arxaik birlik sanaladi. "Eng" ma'nosidagi *En III* omonimi o'zbek va turk tili o'rtasidagi fonetik farq asosida yuzaga kelgan;

köklemek I ağaç veya bitkiyi kökü ile birlikte topraktan çıkarmak, kökertmek; "ko'kartirmoq" – *köklemek II* sazı kurmak; "sozlamoq". O'zbek tilida daraxtning ildiz otib ko'karishiga nisbatan *ko'klamoq* so'zi qo'llanadi. O'zbek shevalarida esa "katta-katta qilib tikmoq" ma'nosidagi *ko'klamoq* fe'li uchraydi.

O'zbek tilidagi *qism* "bo'lak, parcha", *qisim* "hovuch" paronimlari turk tilida bir xil shaklda yozilib, omonimik munosabatga kirishadi: *kısım I* parçalara ayrılmış bir şeyin her bölümü, bölüm, kesim; *qism*; *kisim II* avuç; "qism, kaft".

Turk tilida x va h harflarining bir xil yozilishi va talaffuz qilinishi ham omonimlarni shakllantirishga xizmat qiladi: *mahsus I sf.* Özgü (maxsus, xos); *mahsus II sf. esk.* Duyulan, anlaşılan, hissedilen (his qilingan). Atoqli otlar – ismlar va joy nomlari ham omonim sifatida qaraladi: *Kınık I* (o'g'uzlarning 24 qavmidan biri; *Kınık II* (Izmirdagi tuman nomi). Turk tilidagi omonimik qatorlarda ham so'zlashuv uslubi, shevalarga xos birliklar kuzatiladi.

Turkiy tillarning turli guruhlariga mansub turk va o'zbek tillaridagi omonimik qatorlar mazmunidagi har xillik mazkur tillarning tarixiy taraqqiyot bosqichlaridagi o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi.

Ikkinchi paragrafda "*O'zbek tilidagi leksik omonimlarning kognitiv-semantik tahlili va mental omonimiya qatorlari*" ko'rib chiqilgan. Omonimlarning quyidagi kognitiv belgilari mavjud: 1. Shakliy jihatdan bir xillik. 2. Talaffuz jihatidan bir xillik. 3. Ma'no jihatdan har xillik. 4. Ikkitadan oltitagacha bo'lgan uzvli qator hosil qilish. 5. Til taraqqiyotining muayyan davriga xoslik. 6. Bir xil muloqot ko'rinishida qo'llanish.

Omonimlar talqini murakkabligi minimum ikkita referent strukturasi mavjud bo'lishidir. Paragrafda o'zbek tilidagi leksik omonimlar psixolingvistik jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotimiz davomida ToshDO'TAU, ToshDSHU talabalari ishtirokida omonimlarni tushunish, xotirada saqlash yuzasidan tajribalar o'tkazildi. Tajriba: o'zbek tilidagi leksik omonimlarga 10 ta qator misol keltirish va ma'nosini izohlash. Eksperiment maqsadi: talabalarning omonimlarni, ularning ma'nolarini bilish darajasini, omonimik qatorlar faolligini aniqlash.

A guruhdagi 23 nafar talabadan quyidagi natija olindi:

A guruh	B guruh
ot – 15 (65,2%)	tut – 13 (56,4%)
soch – 11 (47,8%)	olma – 12 (52,1%)
olma – 8 (34,8%)	qo'y – 9 (39,1%)
oq 7 – (30,4%)	oq – 8 (34,8%)
kul 7 – (30,4%)	yoz – 7 (30,4%)
ko'k – 6 (26%)	o't – 4 (17,4%)
tut – 5 (21,7%)	оч – 3 (8,6%)

Tajriba natijalarini tahlil qilish jarayonida quyidagilar qayd etildi: darslik va o'quv qo'llanmalarda qayd qilingan omonimlarning keltirilgani kuzatildi.

Shakliy bir xillikka e'tibor sababli ko'p ma'noli so'zlar omonim sifatida keltirilgan.


Respondentlar keltirgan omonimik qatorlarda so'zlashuv uslubiga, shevalarga xos so'zlar, arxaik birliklar ishtirok etgan. So'zga shakliy jihatdan teng kelgan grammatik shakllar ham omonim sifatida olingan. Omonimiya hodisasida tarixiylik va iste'mol doirasi jihatdan chegaralanmagan holatlar ham mavjud bo'lib, omonimlarni idrok etishda muhim o'rin tutadi.

Mental omonimlar lisoniy omonimlar qatoriga nisbatan ko'p miqdorni tashkil qiladi. Mental omonimiya qatorlarida dominant omonemalar kognitiv talqin asosida aniqlanadi. Kognitiv talqin ma'nodan konseptga yo'naltirilgan talqindir. Ma'no mazmuni va strukturasi semalar tavsifiga asoslanadi. Kognitiv talqin maydoni yadro, yaqin periferiya, uzoq periferiya, chekka periferiyadan iborat bo'ladi⁷³. Masalan, o'zbek tilida hozirgi grafik bir xillik natijasida yuzaga kelgan *o't* omonimi qo'llanadi. *O't* omonimik qatori to'rtta omonemadan iborat: *o't* I “yonish jarayoni; olov, otash”; *o't* II “chorva mollari uchun asosiy ozuqa bo'ladigan yashil o'simlik; alaf”; *o't* III “jigardan ajralib chiquvchi sarg'ish-yashil rangli achchiq suyuqlik” (O'TIL, V, 172); *o't* IV harakat.

O't so'zini yozma shaklda ko'rish yoki eshitish o'zbek tili egasi ongida birinchi navbatda “o'simlik” ma'nosini jonlantiradi. Keyin “harakat” ma'nosidagi *o't* tasavvurga keladi. “O'simlik” ma'nosidagi *o't* leksemasining “harakat” ma'nosidagi *o't*ga nisbatan tez idrok etilishi va tasavvurga kelishi uning real holatda mavjudligi bilan izohlanadi. Harakatda ham reallik mavjud, lekin harakatning o'zini bevosita kuzatib bo'lmaydi. “O't” harakat fe'li aytilganda inson dastlab oyoq harakatini ko'z oldiga keltiradi. Kognitiv maydonning yaqin

⁷³ Кўрсатилган манба. – Б.222.

periferiyasida “tana a’zosi” ma’nosidagi *o’t* joylashadi. Chekka periferiyadan esa “olov” ma’nosidagi *o’t* so’zi o‘rin oladi. *O’t* bilan aloqador kasallik sabab nutqda shu ma’nodagi so‘z ko‘p ishlatiladi. “Olov” ma’nosidagi *o’t* so‘zi kam qo‘llanadi. *O’t* so‘zida neytrallik mavjud, *olov* leksemasi so‘zlashuv uslubida faol ishlatiladi.



Omonimik qatorlarni tashkil qiluvchi omonemalarning kognitiv maydondagi o‘rni so‘zlarning qo‘llanish faolligi bilan belgilanadi.

Keyingi tajribada talabalarga omonim so‘zlar ishtirok etgan gaplar berildi. Gap tarkibidan omonimi mavjud so‘zlarni ajratish, ma’nosini izohlash vazifasi qo‘yildi.

48 nafar ishtirokchidan bittasi gap tarkibidagi omonimlarni to‘g‘ri topa olmagan. 47 nafar talabadan aksariyati gap tarkibidagi *oqibat*, *banda*, *bod* omonimlarini aniqlay olmagan. *Oqibat* omonimini ikki nafar talaba to‘g‘ri tahlil qilgan. *Bod* so‘zining omonimligini 4 nafar, *banda* so‘zini esa 3 nafar talaba izohlay olgan. Qolganlari bu so‘zning omonimi mavjudligini aniqlay olmagan.

Tajriba natijalari asosida omonimlarni bilish, anglash darajasi haqida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Filolog talabalar ongida darslik, qo‘llanmalarda omonimga oid nazariy masalalarni yoritishda keltirilgan misollar ko‘proq esda qoladi: *o’t*, *olma*, *qo‘y*, *soch*, *ko‘k*, *oq*, *ot*, *yoz*, *tut*. 2. Talabalarining manbalarda leksik omonim sifatida keltirilgan, lekin, aslida, leksik omonim bo‘lmagan so‘zlarni ham omonim sifatida yod olgani va qabul qilgani ma’lum bo‘ldi. 3. Tajriba jarayonida ko‘chma ma’noli, arxaik, shevaga xos so‘zlarning omonim sifatida olingani, so‘z tarkibidagi shakllarning ajratilgani lisoniy omonimiya bilan mental omonimiyaning farqlanishini ko‘rsatadi. Mental omonimiyada kognitiv talqin maydoni yadrosida eng faol qo‘llanuvchi omonema turishi, boshqa uzvlari kognitiv maydonning markaz va yaqin chekka qismlaridan joy olishi aniqlandi. 4. Omonimik qatordagi dominantalik leksik omonimlarning ko‘p uchrashi, manbalarda qayd qilinishi, til egasi faoliyatida ko‘p qo‘llanishi bilan izohlanadi.

Uchinchi paragraf “*Turk tilidagi leksik omonimlarning kognitiv-semantik tahlili va mental omonimiya qatorlari*” tahliliga bag‘ishlangan. Turk tilshunosligida so‘zlarning o‘zaro omonim bo‘lishi uchun talaffuzi va yozilishi bir xil, ma’nosi turlicha bo‘lishi yetarli hisoblanadi: *akrep (chayon) – akrep (soatning kichik mili)*; *çay (choy) – çay (soy)*.

Turk tilidagi omonimlarning tushunilishi, xotirada saqlanishi yuzasidan tajribalar o‘tkazildi. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 3-kurs (nofilologik yo‘nalish) talabalari bilan “Turk tili” darsida 14 nafar talaba ishtirokida o‘tkazilgan tajribada respondentlardan *pul* omonimining ma’nolarini izohlash so‘raldi. Turk tilining izohli lug‘atlarida *pul* ko‘p ma’noli so‘z sifatida talqin qilingan, biz mazkur birlikni omonim sifatida qayd etdik. 14 nafar respondentdan 2 nafari (Sh.D., 21 yosh va O.B., 22 yosh) “marka” ma’nosini keltirgan, biroq ikkinchi o‘rinda qayd etgan. 1-o‘rinda “tanga” ma’nosini keltirgan. Javoblarda *pul* “qadrsiz”, “ovqat turi”, “kemalar turadigan joy”, “sotib olish uchun qo‘llanadi”, “onlayn kamyon” variantlari ham kuzatildi.

2024-yilning 14-may sanasida Kastamonu universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti Hozirgi turkiy tillar va adabiyot bo‘limida jami 62 nafar respondent ishtirokida tajriba o‘tkazildi. 32 nafar talabaga 10 ta omonimik qator yozish va izohlash topshirildi. Tajriba natijasida nofilologik yo‘nalishdagi talabalarda toponimlarni omonim sifatida baholash kuzatildi. Omonimlarning nutqda ko‘p qo‘llanishi, matnlar tarkibida kelishi yuqori qo‘llanish chastotasini ta’minlagan. Yoshi katta bo‘lgan respondentlar omonimlar qatorini to‘liq topishga harakat qilgan. Omonimlarni tushunish, xotirada saqlash hudud bilan, insonning yoshi, sohasi bilan ham aloqadorligi aniqlandi. Turk tilidagi omonimlar konseptosferasi narsa-buyum, joy nomlari, atoqli otlar doirasini qamrab oladi.

Tadqiqot davomidagi tajribalarda o‘zbekistonlik 189 nafar, turkiyalik 178 nafar respondent ishtirok etdi.

To‘rtinchi paragrafda “*O‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning badiiy-kognitiv xususiyatlari*” masalasi tahlil qilingan. Omonimiya hodisasi turkiy tillarning o‘ziga xos xususiyatlaridan hisoblanib, badiiy san’at darajasiga ko‘tarilgan. Tuyuq, askiya janri shakldoshlik hodisasiga asoslanadi. Tajnis, iyhom san’atlari shakldoshlik asosida yuzaga chiqadi. Badiiy matnda omonimlar asosida yashirin va ishora qilingan mazmunni ifodalash takomillashgan. Leksik omonimlar ma’nolariga asoslangan tuyuq janri kognitiv jarayonlarni ifoda etuvchi badiiy manba hisoblanadi.

Rus tilshunosligida omonimlarning psixolingvistik tahliliga e’tibor qaratilgan⁷⁴. Ilmiy adabiyotlarda omonimlarning kognitiv tahlil usullari keltirilgan. Bir xil shaklda ikki ma’noning ifodalanishida tushunish jarayoni bosqichlari qayd etilgan. M.Yujannikova til o‘yinlarini tushunish mexanizmini tavsiflash uchun qo‘llagan dekodlash bosqichlarini keltirgan va uni bir qator modifikatsiyalar bilan

⁷⁴Рябцева Э.К. О понимании студентами явления грамматической омонимии при чтении научно-технической литературы (по результатам эксперимента). В кн.: Некоторые вопросы методики преподавания иностранных языков в школе и вузе. – М., 1973. – С. 75-87; Норман Б.Ю. Психолингвистический эксперимент с синтаксическими омонимичными предложениями. В кн.: Вопросы лексики и синтаксиса. Шяуляй, 1974. – С. 145-150.

ikki ma'noli ifodalar uchun qo'llash mumkinligini qayd etgan⁷⁵. Ushbu bosqichlarga tayanib va ayrim o'rinlarda ijodiy yondashgan holda, tuyuq janridagi omonimlikning kognitiv asoslari tahlil qilindi:

*La'lidin jonimg'a o'tlar yoqilur,
Qoshi qaddimni jafodin yo qilur.
Men vafosi va'dasidin shodmen,
Ul vafo, bilmonki, qilmas yo qilur⁷⁶.*

1. Kognitiv bosqichda o'quvchi matnni tushunishda o'z kognitiv bilimlaridan foydalanadi. Hozirgi zamon o'quvchisining qabul qilishiga ko'ra, tuyuqdagi so'zlar uchga ajratiladi: *tushunarli, tushunarsiz, tushunarli tushunarsiz* so'zlar.

Tushunarli so'zlar	Tushunarsiz so'zlar	Tushunarli tushunarsiz so'zlar
<i>Jon, o't, qosh, qad, jafod, men, vafo, va'da, shod, bilmon, qilmas, qilur</i>	<i>ul, la'l</i>	<i>yo qilur, ul</i>

Ul, la'l so'zlarining ma'nosini anglash uchun o'quvchi kognitiv ong'dagi ma'lumotdan foydalanadi. *Yo qilur* qo'shib yoki ajratib yozilishi jihatidan joriy alifboda farqlanadi. Arab yozuvida bu shakllar bir xil yoziladi: ياقيلور *yo qilur*. Birinchi misradagi *yoqilur* "olov yoqmoq" ma'nosidagi so'z. Ikkinchi misradagi *yo qilur* "yoy qilmoq" ma'nosidagi qo'shma fe'l. Uni anglash uchun, avvalo, arab yozuvi, undagi harflar haqidagi bilim talab qilinadi. Arab alifbosidagi yo(y) ي "egik" tushunchasini ifodalash uchun qo'llangan va harf san'ati uchun asos bo'lgan. Bu o'rinda ي (yoy) har doim ا (alif)ga shakliy jihatdan zid qo'yiladi: ا (alif) tik qomatni, ي (yoy) egik qomatni ifoda etadi. O'quvchi qosh va ي (yoy) o'rtasidagi aloqadorlikni ham sezishi kerak va Alisher Navoiyning botinan qoshni ي (yoy) ga qiyoslaganini anglashi kerak bo'ladi.

2. *Lingvistik bosqichda* tinglovchiga lisoniy birlik orqali aytilmagan element namoyon qilinadi. Tuyuqdagi *bilmonki* so'zi *yo qilmadi yo qilur* so'zlari orqali reallashgan ma'noni ifodalashda noaniqlik semasini namoyon qiladi. 3. *Mazmunlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash bosqichida* tuyuqda aks etgan, o'quvchi ongida idrok qilinadigan ikki xil – zohiriy va botiniy mazmun o'rtasidagi munosabat izohlanadi. 4. *Pragmatik bosqichda* go'zal chehrali yorning va'daga vafosidan (vafo qilish-qilmasligidan) qat'iy nazar, oshiqning sadoqati aks ettirilgan. Tuyuqda qayd etilganlardan tashqari boshqa botiniy ma'nolar ham borki, uni anglash uchun tasavvuf va diniy bilimlar haqidagi kognitiv ma'lumotlar zarur bo'ladi.

Turk tilshunosligida tuyuq janri haqida ma'lumot ko'p emas. Adabiyotlarda tuyuqning kam qo'llanishi qayd etilgan. Rejai Kiziltunch tuyuq XVI-XVII asrlarda turk shoirlari tomonidan qo'llanilganda ko'p muammolar bartaraf etilishini,

⁷⁵Южанникова М.А. Феномен двусмысленности как основание стилистических приемов в современном русском языке. Дисс. ... канд. филол. наук. – Красноярск, 2015. –С.55.

⁷⁶ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 1-том. Бадойиъ ул бидоя. –Тошкент: Фан,1983. – Б.492.


boshqa mumtoz she'rlar qatori devon adabiyotida ham tuyuq o'z o'rnini egallagan bo'lishi mumkinligini qayd etgan⁷⁷.

Omonimlar maqollar, iboralar va tajnis san'atida qo'llanadi. *Kismetindir gezdiren yer yer seni/ Arşa çıksan akıbet yer, yer seni./Onun için onun adı yer oldu. Önce besler sonra kendi yer seni.(İbn-Kemal Paşa)*. Mazmuni: Qismatingdir kezdirgan yurtma-yurt seni, Arshga chiqsang, oqibat yer, yer seni⁷⁸. Misralarda yer yer "yurtma-yurt", yer seni "yer yutar", yer "yer", yer "yemoq" so'zlari tajnisni yuzaga keltirgan.

Leksik omonimlar badiiy matnda emotsional-ekspressiv funksiya bajaradi va o'ziga xos badiiy-kognitiv xususiyatlarni hosil qiladi.

IV bob "**O'zbek va turk tillarida leksik omonimlarni tarjima qilish muammolari va sun'iy intellekt, kompyuter texnologiyalari tizimida omonimlarni tushunish masalasi**"ga bag'ishlangan. Birinchi paragrafda "*O'zbek va turk tillarida leksik omonimlarni avtomatik tarjima qilish muammolari*"tahlil qilingan. Omonimlar avtomatik tarjimada eng ko'p kuzatiladigan muammodir. O'zbek tilidagi matnlar tarjimasidagi muammolar faqat omonimlar bilangina bog'liq emas. O'zbek tili ishtirokidagi tarjimalarning sifatsizligi o'zbek tili milliy korpusining yaratilmagani, o'zbek tilidagi tezauruslar, ma'lumotlar bazasi shakllantirilmagani xalqaro darajadagi foydalanish tizimiga ega emasligi bilan ham izohlanadi. Turk tilidagi omonimlar tarjimasini avtomatik tarjima jarayonining xususiyati bilan bog'liq. Turk tilida milliy korpusning yaratilgani, katta hajmli TurkWordnet (TR-WordNet) tizimi mavjudligi, turk tilidagi ma'lumotlar bazasining shakllantirilgani turk tili ishtirokidagi tarjima jarayonining sifatini ta'minlaydi.

O'zbek va turk tillari bir genetik oilaga nansubligi tufayli tarjimada gap strukturasi, mazmuni bilan bog'liq xatolar kam uchraydi. Lekin omonimlar ishtirokidagi matnlarda xatolar kuzatiladi: *O'rtada burun bolmasa, ko'z ko'zni o'yar/Ortada burun yoksa gözleri açın.*



Bu tarjimada mashina omonimning ma'nosini to'g'ri topgan. Lekin gapdagi propozitsiya to'g'ri ifodalanmagan. O'zbek tilida: *burun ko'zlarning bir-biriga*

⁷⁷ Kiziltunç R. Türk Edebiyatında Tuyug ve Bazı Problemleri. A.Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi.Sayı: 37. – Erzurum, 2008. – S.107.

⁷⁸ Pala İ.Divan Edebiyatı. – İstanbul: Sertifika Matbaası, 2008. – S. 162

yomonlik qilishiga ijobiy ma'nodagi to'siq sifatida namoyon bo'ladi, turk tilidagi tarjimada salbiy ma'nodagi to'siq vazifasini bajargan.

O'zbek tilidagi omonim ishtirokidagi matnni rus tiliga va turk tiliga tarjima qilish jarayonida quyidagilar ma'lum bo'ldi: 1. O'zbek tilidagi matn turk tiliga o'girilganda gapning grammatik qurilishiga oid xatolar qardosh bo'lmagan tilga (rus tiliga) tarjima qilingan holatga nisbatan kam uchraydi. 2. Omonimlarning qardosh bo'lmagan tilga tarjimasida denotativ ma'noda ham xatolar kuzatiladi. O'zbek tilidan turk tiliga amalga oshirilgan tarjimada o'z ma'nosida qo'llangan hamda termin sifatida ishlatilgan omonemaning to'g'ri tarjima qilinishi qayd qilindi. 3. O'zbek va turk tillariga amalga oshirilgan matn tarjimasida omonimlar ibora tarkibida qo'llanganda xatolar uchraydi. Mashina so'zni ibora tarkibidan ajratib olib, barqaror birikmani o'z ma'nosida tarjima qiladi.

O'zbek-turk tillari kesimida omonimlar tarjimasida borasida kutilgan natijaga erishish uchun o'zbek tilidagi leksik omonimlarning ma'lumotlar bazasini shakllantirish, razmetkalash vazifalarini amalga oshirish lozim bo'ladi.

Ikkinchi paragrafda *“Sun'iy intellekt tizimida o'zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarni tushunish va tarjima qilish masalalari”* yoritilgan.

ChatGPTga ingliz tilidagi 100 ta omonimni topish vazifasi yuklanganda, topshiriq deyarli xatosiz bajarildi. Turk tilidagi 100 ta omonimni ajratish so'ralganda ayrim xatolarga yo'l qo'yilgan ma'lumot olindi. O'zbek tilidagi 100 ta omonimni ajratish so'ralganda tizim topshiriqni xato bajardi. O'zbek tilida omonim sifatida ajratilgan 100 ta shakldosh juftlikdan bor-yo'g'i uchtasigina ChatGPT tomonidan to'g'ri tanlangan: *ko'k – blue, ko'k – sky (osmon); qo'y – sheep; qo'y – put; qo'y – sheep, qo'y – fire*. Sun'iy intellektda o'zbek tilidagi muloqot kam bo'lgani, o'zbek tilidagi ma'lumotlar bazasi kam o'zlashtirilgani bois ChatGPT o'zbek tilidagi omonimlarni farqlay olmaydi.

Neyrolingvistik nuqtayi nazardan omonimlarni o'rganish miyaning bir xil tovush yoki talaffuzga, ammo turli xil ma'nolarga ega bo'lgan so'zlarni qanday qayta ishlashi va farqlashiga qaratilgan. Neyrolingvistik tadqiqot omonimlarni qayta ishlashda ishtirok etadigan kognitiv va neyrofiziologik mexanizmlarni tushunishga yordam beradigan turli usullar va yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Masalan, funksional magnit-rezonans tomografiya (fMRT) – omonimlarni qayta ishlash jarayonida miya faoliyatini o'rganadi: ishtirokchilarga matn tarkibida yoki alohida holda omonimlar taqdim etiladi va fMRT turli xil miya hududlari faoliyatidagi o'zgarishlarni qayd etadi. Natijada omonimning turli ma'nolari matnga qarab turli neyron tarmoqlarni faollashtiradi. Omonimlarning ma'nolarini farqlashda matn asosiy rol o'ynaydi. Miya so'zning to'g'ri ma'nosini tez va samarali aniqlash uchun matndan foydalanadi. Bu tahlil omonimiya hodisasining miya faoliyati bilan bevosita aloqadorligini ko'rsatuvchi dalil sifatida xizmat qiladi.

Uchinchi paragraf *“O'zbek va turk tillarida omonimlarni teglash masalalari”*ga bag'ishlangan. Omonimlar tarjimasida va ma'no izohi bilan bog'liq muammo teglash (razmetkalash) orqali bartaraf etiladi. O'zbek tilidagi

omonimlarni teglashda kodlardan, simvollardan, shartli belgilardan foydalanish mumkin.

Omonimlarni belgilashda rim raqamlarini *teg* sifatida qo'llash mumkin: *bo'z I ot.* xom pishitilgan paxta ipidan qo'l dastgohida to'qilgan, oq-sarg'ish rangli dag'al ip gazlama; *bo'z II ot.* o'tsimon cho'l o'simligi; chalov; *bo'z III sifat.* ekin ekishga yaroqli, lekin uzoq vaqt ishlanmay, ekilmay yotgan yer; *bo'z IV sifat.* ko'kka moyil oq rang, kulrang. Turli turkumdagi omonimlikni farqlash nisbatan oson: grammatik shakllar qo'shilganda omonimlik bartaraf bo'ladi: *bo'z[ni] I ot, bo'z 0 III sifat;* Bir turkumdagi omonimlikni grammatik shakllar bilan bartaraf etib bo'lmaydi. Bir turkumdagi omonimlarning ma'nolariga oid teglardan foydalanish to'g'ri bo'ladi: *asr Iv ot.* yuz yilga teng bo'lgan vaqt o'lchov birligi; *asr IIIk ot; din; esk.* tushdan (peshindan) keyingi, quyosh botishidan oldingi payt; shu paytda o'qiladigan namoz; "payt" – "payt+namoz"). Bunda *asr Iv* – vaqtga ishora qiluvchi belgi (v-vaqt), *asr IIIk* – kunga ishora qiluvchi belgi (k-kun).

Bog'liq omonimini quyidagi teglar orqali farqlash mumkin:

bog'liq I_{ot} – o'rilgan o'simlikni bog'lashda, tok novdalarini ishkonga, so'riga ko'tarib bog'lashda ishlatiladigan po'stloq, kanop ip; *bog'liq II_{sf}* – *sifat.* bog'langan: *bog'liq III_f* – biror jihatdan mute, tobelik yoki aloqadorlik munosabati bilan uzviy ravishda bog'langan; aloqador.

Turk tilida teglash tizimini so'zning qo'llanish sohasi, ma'nosi va turkumi bo'yicha belgilash tavsiya qilindi:

<i>Örük I</i>	<i>halk aғzında Saç örgüsü/soch o'rami</i>	<i>Örük I_{saç}</i>
<i>Örük II</i>	<i>halk aғzında. Hayvanlari çayıra bağlamaya yarayan kalın ip/ arqon</i>	<i>Örük II_{ip}</i>

O'zbek tilidagi omonimlik bilan bog'liq muammoni bartaraf etish maqsadida maxsus teglar tizimi ishlab chiqilgan⁷⁹. Kompyuter dasturi omonimik shakllardan teg asosida belgilangan tegishli so'zni ajratgan holda tarjima qiladi.

"O'zbek va turk tillarida omonimlarni farqlash usullari va kompyuter texnologiyalari" deb nomlangan to'rtinchi patagrafda omonimlarni farqlash usullari keltirilgan. M.V.Kopotev, A.Mustayokilar hozirgi tilshunoslikda korpus asosidagi yondashuvning ahamiyatini bir qator misollar orqali ko'rsatib berar ekan, shunday yondashuvlarning bir usuli sifatida kollokatsiyalar (ya'ni leksemalar birikmasi) tadqiqi hozirda korpus tadqiqotlarining eng ommabop mavzularidan biri bo'lib qolayotganligini ta'kidlagan⁸⁰. Hozirgi ingliz tilida turkum omonimiyasini bartaraf etish uchun qurshovdan (oldin yoki keyin kelgan so'zdan (правые и левые коллокаты) foydalaniladi. Birikma so'zning qaysi turkumga mansubligini aniq ko'rsatib turadi⁸¹. Kollokatsiya usulidan o'zbek va turk tillaridagi omonim so'zlarni ajratishda foydalanish mumkin.

⁷⁹Abdurahmanova M., Rahmonova A. O'zbek tili omonimlari uchun milliy teglar lug'ati. – Toshkent, 2022.

⁸⁰Копотев М.В., Мустайоки А. Современная корпусная русистика // Slavica Helsingiensia. Инструментарий русистики: корпусные подходы. – Хельсинки, 2008. –С.12.

⁸¹ Богданова С.Ю. Исследование слова и предложения компьютерными методами. Слово в предложении. – Иркутск: ИГЛУ, 2010. –С.194-213.

<i>Suz I</i> omonimi ishtirokidagi kontekst	<i>Suz I</i> soʻzidan oldingi yoki keyingi qism	<i>Suz I</i> leksemasi turkumi va maʼnosi
<i>Senga koʻz suzganini oʻz koʻzim bilan koʻrdim-ku?!</i>	$koʻz(i)+ni \rightarrow suz+$ $gan+$ $i+ni \rightarrow$ $koʻr+di+m-ku$	<i>feʼl</i> , noz- karashma ifodalovchi holatga keltirmoq (koʻzni)

Birikuvlardagi munosabatlarni ifodalashda quyidagi teglardan foydalandik:

0 – qismning mavjud emasligini, **ø** – grammatik shaklning belgisiz ekanligini, **g.sh** – grammatik shaklni, **g.v.** – grammatik vositani bildiradi.

Omonimlarni aniqlashning yana bir yoʻli sifatida sinonimiga almashtirish usulini koʻrsatish mumkin. Bunda omonim soʻzlarni topish uchun ularning sinonimidan foydalaniladi. Masalan, *oʻram (A)*, *daraxtzor (B)*, *ip (C)* soʻzlarini ifodalaydigan omonim soʻz sifatida *bogʻ* soʻzi olinadi. Bu munosabat $A+V+C=O_1, O_2, O_3$ tarzida modellashtiriladi. *Tafovut (A)*, *ajratish (V)* soʻzlari *farq (O_1, O_2)* omonimini aniqlashga xizmat qiladi: $A+V=O_1, O_2$. Agar omonim soʻzlarning sinonimlari oʻzaro maʼnodoshlik hosil qilsa, bu omonemalar etimologik jihatdan bir asosdan yuzaga kelgan boʻladi: $A=V \rightarrow O_1, O_2$.

ga

Dunyo tillarida omonimlarni tushunish va oʻzlashtirishning kompyuter usullari ham ishlab chiqilgan. Jumladan, xitoy iyerogliflarining keng imkoniyatlarini hisobga olib, omonimlar asosida kompyuter oʻyinlari yaratilmoqda. Xitoy tilida qisqartmalar omonimligidan ham foydalaniladi⁸².

Ijtimoiy tarmoqlarda, oʻquv dasturlarida omonimlar ishtirokida turli oʻyinlar, onlayn testlar (turli toifadagi), rasmi kitoblar, sheʼrlar, tezaytishlar, topishmoqlar mavjud. Turk tili omonimlarni farqlashning kompyuter usullari borasida oʻzbek tiliga nisbatan koʻp yutuqlarga erishgan. Ayniqsa, omonimlardan taʼlim jarayonida foydalanilayotgani, taʼlim korpuslarining omonimlarga doir topshiriqlarga asoslangani eʼtiborga molik.

Omonimlar maʼnolarini kollokatsiya, sinonimini keltirish usullari, kompyuter oʻyinlari hamda teglar asosida farqlash tarjima dasturlarining shakl va mazmun jihatidan sifatli boʻlishini taʼminlashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, sunʼiy intellekt imkoniyatlarini ham oshiradi.

XULOSA

1. Jahon tilshunosligida omonimiya hodisasi, omonim turlari, omonimik munosabat qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigma asosida batafsil oʻrganilgan. Bir til doirasidagi omonimlar diaxron, sinxron aspektda tadqiq etilgan. Omonimlarning shakllanish omillari, omonimlarni hosil qilishdagi soʻz yasalishi, konversiya, semantik usullar tahlil qilingan. Omonimlarning lisoniy xususiyatlari,

⁸² Кислов А.В., Колпачкова У.Н. Влияние интернета на современный китайский язык / Компьютерная лингвистика и вычислительные онтологии. Выпуск 1. 2017. – С.72-86; Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. –Toshkent, 2019. – B. 128; Рахмонова А. Ўзбек тили миллий корпусини яратишда компьютер усуллари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. –Тошкент, 2021. – 126 б.

madaniy semalari, til tizimida tutgan o'rnini, ta'lim jarayoniga tatbiq etishga bag'ishlangan izlanishlar amalga oshirilgan. Keyingi yillarda omonimlar psixolingvistik aspektida, kognitiv, kvantitativ yondashuv asosida tahlil qilinmoqda. Omonim birliklarning konseptosferani ifodalovchi vosita sifatidagi talqini, leksik omonimlarni tushunish, idrok etish bilan bog'liq masalalar tadqiqi ham amalga oshirilgan.

2. Turli tizimdagi tillarga oid tadqiqotlarda tillararo omonimiya masalasi, omonimlarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Qardosh tillardagi omonimiya tadqiqi, asosan, hodisaning lisoniy belgilarini o'rganishga qaratilgan.

Turkologiyada olib borilgan izlanishlarda qiyosiy aspektdagi ishlar kam uchraydi. Leksik omonimlar qiyosiga bag'ishlangan tadqiqotlarda qardosh tillardagi omonimiyaning lingvistik xususiyatlari, o'xshash hamda farqli jihatlari yoritilgan. O'zbek tilida omonimlar keng doirada o'rganilgan. Leksik omonimlarning semantik-uslubiy xususiyatlari, ko'p ma'noli so'zlardan farqi, shakllanish omillari tahlil etilgan. Omonimlarga oid eng ko'p tadqiqot rus va o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan. Turk tilida omonimlar nisbatan kam o'rganilgan.

3. Omonimlar turli nuqtayi nazardan tasniflangan. Jahon tilshunosligidagi, asosan, rus tilshunosligidagi omonimlar tasnifi o'zbek tiliga ta'sir qilgan. Natijada omonimlarni nisbatan "to'liq" (польные) va "to'liq bo'lmagan" (непольные) tarzida tasniflash ommalashgan. *Omograf*, *omofon* tushunchalari "to'liq bo'lmagan" omonim sifatida baholangan. Omonimga yondosh omograf tushunchasi turkiy tillar uchun xos emas. Grafik bir xillik omili omograflarning leksik omonim sifatida, omofonlarning boshqa hodisa sifatida baholanishiga asos bo'ladi.

4. O'zbek va turk tillaridagi omonimlar umumturkiy asosga ega. Mazkur tillardagi omonimlarning umumturkiy asosi "Devonu lug'otit turk"da, keyingi davr yozma va og'zaki manbalarida jamlangan. "Devon"da qayd etilgan yetti yuzdan ortiq leksik omonimik qator ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid bo'lib, ikkitadan to'rttagacha omonemani qamrab olgan. "Devonu lug'otit turk"dagi aksariyat leksik omonimlar hozirgi o'zbek va turk tillarida qo'llanmaydi. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyot davomida ayrim tushunchalarning tarixiylashuvi va arxaiklashuvi natijasida omonimik qatorlarning ko'p hollarda birgina uzvi saqlanib qolgan.

5. O'zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning shakllanish omillarida umumiylik mavjud. Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish, fonetik o'zgarishlar, so'z yasalishi, umumiste'mol birligining terminga aylanishi, ko'p ma'noli so'zning semantik taraqqiyoti har ikki tilda ham leksik omonimiyaning yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Leksik omonimiya shakllanishining o'ziga xos omillari ham mavjud bo'lib, o'zbek tilida turli leksemalarning grafik jihatdan teng kelib qolishi, konversiya usuli orqali hosil qilinadi. Turk tilida umumiste'mol so'zlarining toponimga aylanishi, chet so'zlarning turk tili fonetik qonuniyatiga bo'ysundirilishi natijasida leksik omonimlar yuzaga keladi. Turk tilida leksik omonimiyaning so'z yasalishi usuli bilan yuzaga kelishi nisbatan faoldir. Turk tilida omonim

shakllanishining fonetik-grafik usuli ham borki, o'zbek tilida kuzatilmaydi. Leksik omonimiya o'zlashgan so'zni milliy til talaffuziga moslash natijasida yuzaga kelgan fonetik o'zgarishni grafikada aks ettirish orqali ham hosil qilinadi. Umumiste'mol birligining terminga aylanishi, ko'p ma'noli so'zning semantik taraqqiyoti har ikki tilda ham leksik omonimiyaning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

